


# **O'ZBEK FALSAFASI**

## **MODULI BO'YICHA**

### **O'QUV-USLUBIY MAJMUA**



**SAMARQAND-2022**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIMI  
VAZIRLIGI**

**OLIY TA'LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI QAYTA  
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OShIRISHNI TASHKIL ETISH BOSH  
ILMIY-METODIK MARKAZI**

**SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG  
KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH  
MINTAQAVIY MARKAZI**

**“O'ZBEK FALSAFASI”**

**MODULI BO'YICHА**

**O'QUV-USLUBIY MAJMUA**

**Qayta tayyorlash va malaka oshirish kursi yo'nalishi: Falsafa**

**Samarqand -2022**

**Modulning o‘quv-uslubiy majmuasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining  
2020 yil “7”-dekabrdagi 648-sonli bayonnomasi bilan ma’qullangan o‘quv  
dasturi va o‘quv rejasiga muvofiq ishlab chiqilgan.**

**Tuzuvchilar:**

Samarqand davlat universiteti falsafa kafedrasи professori S.Karimov, professor  
Sh.Qo‘sboqov, dotsent A.Samadov

**Taqrizchilar:**

Samarqand davlat universiteti falsafa kafedrasи professori B.Turaev, f.f.n., dotsent  
M.Allayorova

**Xorijiy ekspert:** Xo‘jand davlat universiteti madaniyatshunoslik kafedrasи dotsenti,  
f.f.n. R.T.Usanov (Tojikiston Respublikasi).

O‘quv-uslubiy majmua Samarqand davlat universiteti ilmiy-metodik kengashi (2020 yil “28”-  
dekabrdagi 4- sonli bayonnomasi).

# **MUNDARIJA**

I.	MODULNING IShChI DASTURI.....	5
II.	INTERFAOL TA'LIM METODLARI.....	9
III.	NAZARIY MATERIALLAR.....	15
IV.	AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI.....	37
V.	GLOSSARIY.....	53
VI.	ADABIYOTLAR RO'YXATI .....	62
VII.	EKSPERT XULOSA.....	65

## **I. MODULNING IShChI DASTURI KIRISH**

Mazkur dastur rivojlangan xorijiy davlatlarning oliy ta’lim sohasida erishgan yutuqlari hamda orttirgan tajribalari asosida “Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari, Falsafa ” qayta tayyorlash va malaka oshirish yo‘nalishi uchun tayyorlangan namunaviy o‘quv reja hamda dastur mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u zamonaviy talablar asosida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasbiy kompetentligini muntazam oshirib borishni maqsad qiladi.

Jamiyat taraqqiyoti nafaqat mamlakat iqtisodiy salohiyatining yuksakligi bilan, balki bu salohiyat har bir insonning kamol topishi va uyg‘un rivojlanishiga qanchalik yo‘naltirilganligi, innovatsiyalarni tadbiq etilganligi bilan ham o‘lchanadi. Demak, ta’lim tizimi samaradorligini oshirish, pedagoglarni zamonaviy bilim hamda amaliy ko‘nikma va malakalar bilan qurollantirish, chet el ilg‘or tajribalarini o‘rganish va ta’lim amaliyotiga tadbiq etish bugungi kunning dolzarb vazifasidir. “Islom va hozirgi zamon” Moduli aynan mana shu yo‘nalishdagi masalalarni hal etishga qaratilgan.

### **Modulning maqsadi va vazifalari**

“O‘zbek Falsafasi” Modulini o‘qitishdan maqsad: oliy o‘quv yurtlari professor-o‘qituvchilari bilan Falsafa Modulini o‘qitish jarayonida ahamiyat berish lozim bo‘lgan masalalar, Modulni o‘rganish va tahlil qilishga qaratilgan ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish orqali ushbu yo‘nalishdagi ta’lim jarayonini muvofiqlashtirish va mazmunan boyitish, Islom va hozirgi zamon bo‘yicha ma’lumotlarni berish samaradorligini oshirishga yordam beradigan zamonaviy yondashuvlar bilan hamda pedagogik va axborot texnologiyalar bilan tanishtirish, ma’naviyat asoslari sohasida yuksak malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash sifatini oshirish.

### **Modulning vazifalari:**

- Falsafa yo‘nalishida pedagog kadrlarning kasbiy bilim, ko‘nikma, malakalarini uzlucksiz yangilash va rivojlantirish;
- zamonaviy talablarga modulli tizimga mos holda oliy ta’limning sifatini ta’minalash uchun zarur bo‘lgan pedagoglarning kasbiy kompetentlik darajasini oshirish;
- Falsafa sohasi pedagoglari tomonidan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va xorijiy tillarni samarali o‘zlashtirilishini ta’minalash;
- Falsafa sohasidagi o‘qitishning innovatsion texnologiyalari va ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘zlashtirish;
- Falsafa ning ijtimoiy hayot va konfessiyalararo muammolarini o‘rganishning zamonaviy tendensiylarini ishlab chiqish;
- Falsafa yo‘nalishlarida jahon dinlarini qiyosiy o‘rganishning globallashuv va diniy jarayonlar kontekstidagi masalalarni baholash;
- Falsafa yo‘nalishida o‘quv jarayonini fan va ishlab chiqarish bilan samarali integratsiyasini ta’minalashga qaratilgan faoliyatni tashkil etish.

### **Modul bo‘yicha tinglovchilarining bilimi, ko‘nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar**

“O‘zbek Falsafasi” kursini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar

doirasida:

“Kredit modul tizimi va o‘quv jarayonini tashkil etish”, “Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish”, “Pedagogning kasbiy professionalligini oshirish”, “Ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish”, “Maxsus maqsadlarga yo‘naltirilgan ingliz tili” modullari bo‘yicha tinglovchilarning bilim, ko‘nikma va malakalariga qo‘yiladigan talablar tegishli ta’lim sohasi bo‘yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligi hamda kompetentligiga qo‘yiladigan umumiy malaka talablari bilan belgilanadi.

Mutaxassislik fanlari bo‘yicha tinglovchilar quyidagi yangi bilim, ko‘nikma, malaka hamda kompetensiyalarga ega bo‘lishlari talab etiladi:

### **Tinglovchi:**

- O‘zbekistonda Falsafa fanining yangi taraqqiyoti, mustaqillikdan keyin O‘zbekistonda dinlarni o‘rganishga munosabatning o‘zgarishi va fanning ta’lim jarayoniga jalb etilishi muammolarini va uning rivojlanish istiqbollarini;

- jahonda dinlarni o‘rganish tajribasi, globallashuv davrida dinlarni o‘rganishning dolzarbliji, dinlarni o‘rganishdagi zamonaviy qarashlar va Falsafa fanining joriy holati va istiqboldagi vazifalarini;

- dinlarni o‘rganishning sharqona uslubi, bugungi kunda musulmon mamlakatlarida Falsafa fanining o‘qitilish yo‘llari bo‘yicha salohiyatni oshirib borish borasida muntazam ishlashni;

- Falsafa yo‘nalishida Markaziy Osiyo olimu ulamoalarining islom ilmlariga qo‘shgan hissasini va ijtimoiy hayot hamda diniy jarayonlar mohiyatini;

Falsafa fanlarida foydalaniladigan zamonaviy amaliy dasturlar majmularini ***bilishi*** kerak.

### **Tinglovchi:**

- Falsafa fanining o‘qitish bo‘yicha yangi texnologiyalarni amaliyotda qo‘llash;

- axborot texnologiyalarining zamonaviy vositalaridan foydalanib diniy manbalarni bag‘rikenglik jihatidan o‘rganish, diniy manbalar: muqaddas yozuvlar, moddiy manbalar, sharhlar tadqiqi usullari bo‘yicha ilmiy-tadqiqotlarni o‘tkazish;

- Qur’oni karim va hadislarda keltirilgan turli dinlar, dinlarni o‘rganishning sharqona uslubi, musulmon mamlakatlarida Falsafa fanining o‘qitilishini tahlil qilish va aks ettirish, xulosalar chiqarish, ilmiy maqolalar tayyorlash, tavsiyalarini ishlab chiqish;

- Abu Rayhon Beruniy asarlarining Falsafa ni o‘rganishdagi o‘rni, diniy manbalarni bag‘rikenglik jihatidan o‘rganish, muqaddas yozuvlar, moddiy manbalar, sharhlar, tadqiq usullari bo‘yicha ilg‘or tajribalardan foydalanish;

- o‘z ustida ishlab, fanning yangi tadqiqotlarini o‘qitish tizimiga qo‘llash;

- Falsafa bo‘yicha ma’ruza, amaliy mashg‘ulot va nazorat ishlarini tashkil etish;

- pedagogik jarayonda muloqot uslublarini to‘g‘ri qo‘llay olish ***ko‘nikmalariga*** ega bo‘lishi lozim.

### **Tinglovchi:**

- Falsafa fanida axborot-kommunikatsion texnologiyalarini ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan qo‘llash;

- dinlarni o‘rganishdagi zamonaviy qarashlar, Sharq allomalarining asarlaridagi Falsafa masalalari bo‘yicha zamonaviy yo‘nalishlarni ishlab chiqish va ommalashtirish;

- Falsafa fanini ijtimoiy-ma’naviy sohalarga tatbiq qilish;

- Falsafa fanlarida dasturlar paketi yordamida muammolarni o‘rganishning zamonaviy

usullarini qo'llash ***malakalariga*** ega bo'lishi zarur.

### **Tinglovchi:**

- Falsafa fanlarining dasturlar paketini o'quv jarayoniga tatbiq etish;
- Falsafa fanlari dasturlari paketi yordamida yechishning zamonaviy masalalarini tahlil qila olish;
- Falsafa bo'yicha kasbiy faoliyat yuritish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy sifatlarga ega bo'lish;
- Falsafa videodarslarni tayyorlash;
- egallangan tajribani tanqidiy ko'rib chiqish qobiliyati, zarur bo'lganda o'z kasbiy faoliyatining turi va xarakterini o'zgartira olish;
- Falsafa fanida tizimli tahlil usulidan foydalanish yo'llarini ishlab chiqish.
- Falsafa fanlarining dolzarb masalalariga oid zamonaviy manbalardan foydalana olish ***kompetensiyalariga*** ega bo'lishi lozim.

### **Modulning oliy ta'limgagi o'rni**

Modulni o'zlashtirish orqali tinglovchilar ilg'or xorijiy mamlakatlarda biologiya o'qitishni tashkil qilishning xorijiy tajribalarni o'rGANISH, amalda qo'llash va baholashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo'ladilar. So'nggi yillarda Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari, Falsafa sohasidagi yutuqlar va istiqbollar oliy o'quv yurtlaridagi ta'lim jarayonining mazmunini boyitishga xizmat qiladi.

**"O'zbek Falsafasi"** modulining soatlar bo'yicha taqsimoti

№	<b>Modul mavzulari</b>	<b>Tinglovchining o'quv yuklamasi, soat</b>				
		<b>Hammasi</b>	<b>Auditoriya o'quv yuklamasi</b>			<b>Ko'chma mashg'ulot</b>
			<b>Jami</b>	<b>jumladan</b>	<b>Nazariy</b>	
1.	O'zbek falsafasining tarixiy ildizlari.	4	4	2	2	
2.	Globallashuv sharoitida yangicha tafakkur shakllanishini rivojlantirish zarurati.	4	4	2	2	
3.	XX asr o'zbek falsafasi va uning rivojlanish strategiyasi	4	4	2	2	
4.	«Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari» o'zbek falsafasining zamonaviy konsepsiysi.	4	4	2	2	
5	O'zbekistonning jahon sivilizatsiyasiga kirib borishining asosiy yo'nalishlari. Ma'naviy	2	2		2	

barkamol avlod – buyuk kelajak bunyodkori.					
<b>Jami:</b>	<b>18</b>	<b>18</b>	<b>8</b>	<b>10</b>	<b>0</b>

## NAZARIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

### **1-Mavzu: O'zbek falsafasining tarixiy ildizlari.**

Muqaddas manbalari. tarixiy ta'lomi va uning mohiyati. Islomdagi bo'linishlar.

### **2-Mavzu: Globallashuv sharoitida yangicha tafakkur shakllanishini rivojlantirish zarurati.**

Abu Hafs Kabir Buxoriy, Imom Buxoriy, Hakim at-Termiziy va boshqa olim ulamolarning islom ilmlariga qo'shgan hissasi.

### **3-Mavzu: XX asr o'zbek falsafasi va uning rivojlanish strategiyasi**

Din va ijtimoiy hayot. Islom falsafasi. Islom dinida bag'rikenglik masalasi. Islomshunoslikning zamonaviy masalalari.

### **4-Mavzu: «Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari» o'zbek falsafasining zamonaviy konsepsiysi.**

O'zbekistonda dinlararo bag'rikenglik madaniyati. Konfessiyalararo munosabatlar. Yangi O'zbekistonda diniy munosabatlarning yangi bosqichi va rivojlanish yo'llari. Vijdon erkinligi masalasi.

### **5-Mavzu: O'zbekistonning jahon sivilizatsiyasiga kirib borishining asosiy yo'nalishlari. Ma'naviy barkamol avlod – buyuk kelajak bunyodkori.**

«Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari» o'zbek falsafasining zamonaviy konsepsiysi. O'zbekistonning jahon sivilizatsiyasiga kirib borishining asosiy yo'nalishlari. Ma'naviy barkamol avlod – buyuk kelajak bunyodkori.

## AMALIY MASHG'ULOTLAR

### **1-Amaliy mashg'ulot. O'zbek falsafasining tarixiy ildizlari.**

**2-Amaliy mashg'ulot.** Globalashuv sharoitida yangicha tafakkur shakllanishini rivojlantirish zarurati.

### **3-Amaliy mashg'ulot. Islom va hozirgi zamon.**

### **4-Amaliy mashg'ulot. XX asr o'zbek falsafasi va uning rivojlanish strategiyasi**

**5-Amaliy mashg'ulot. O'zbekistonning jahon sivilizatsiyasiga kirib borishining asosiy yo'nalishlari. Ma'naviy barkamol avlod – buyuk kelajak bunyodkori.**

## II. INTREFAOL TA'LIM METODLARI

### “SWOT-tahlil” metodidan foydalanish

**Metodning maqsadi:** mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo'llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandard tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.



**Namuna:** Ana'naviy va zamonaviy ta'lif shakllarini “SWOT-tahlil” metodida tahlil qiling.

	Oddiy ma'ruzada ma'ruzachi talabalar, tinglovchilarga ko'p ma'lumot bera oladi	Muammoli ma'ruzada kamroq ma'lumot beriladi, biroq ular talabalar ongiga singdirib beriladi
	O'qituvchi asosan o'zi va a'lochi, qiziquvchi talabalar bilan gaplashadi, ya'ni darsda oz sonli talabalar qamrab olinadi	Muammoli ma'ruzada ko'p sonli tinglovchilar qamrab olinadi
	Oddiy ma'ruzada faqat o'qituvchi reja asosida va tayyorlab kelgan ma'lumotlari atrofida gaplashiladi	Muammoli ma'ruzada muhokama jarayonida yangi-yangi masalalar, muammolar yuzaga chiqishi, g'oyalar tuhilishi mumkin.
	O'qituvchi uchun asosiy to'siq – dasturdan chiqib keta olmaslik, talaba uchun qiziqmasa ham o'qituvchini eshitib o'tirish majburiyati	Keng muhokama uchun vaqtning chegaralanganligi, talabalarni mavzudan chetga intilishlari

## **Rezyume, Veer metodidan foydalanish**

**Metodning maqsadi:** Bu metod murakkab, ko‘ptarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o‘rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo‘yicha o‘rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashga hamda o‘quvchilarning mustaqil g‘oyalari, fikrlarini yozma va og‘zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. “Xulosalash” metodidan ma’ruza mashg‘ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashg‘ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida foydalanish mumkin.

### **Методни амалга ошириш тартиби:**



тренер-ўқитувчи иштирокчиларни 5-6 кишидан иборат кичик гурухларга ажратади;



тренинг мақсади, шартлари ва тартиби билан иштирокчиларни таништиргач, ҳар бир гурухга умумий муаммони таҳлил қилиниши зарур бўлган қисмлари туширилган тарқатма



ҳар бир гурух ўзига берилган муаммони атрофлича таҳлил қилиб, ўз мулоҳазаларини тавсия этилаётган схема бўйича тарқатмага ёзма баён қиласди;



навбатдаги босқичда барча гурухлар ўз тақдимотларини ўтказадилар. Шундан сўнг, тренер томонидан таҳлиллар умумлаштирилади, зарурий ахборотлр билан тўлдирилади ва

### **Namuna:**

#### **Falsafadan malaka talablari**

<b>Sobiq standartlar</b>		<b>Amaldagi standartlar</b>		<b>Takomillashtirilgan standartlar</b>	
afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi
<b>Xulosa:</b>					

## “FSMU” metodidan foydalanish

**Texnologiyaning maqsadi:** Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiyligi fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o‘zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma’ruza mashg‘ulotlarida, mustahkamlashda, o‘tilgan mavzuni so‘rashda, uygaga vazifa berishda hamda amaliy mashg‘ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

### Texnologiyani amalga oshirish tartibi:

- qatnashchilarga mavzuga oid bo‘lgan yakuniy xulosa yoki g‘oya taklif etiladi;
- har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog‘ozlarni tarqatiladi:



FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o‘zlashtirilishiga asos bo‘ladi.

### Namuna.

**Fikr:** “Falsafadan malaka talablarini xalqaro andozalar asosida takomillashtirish va sertifikatlashtirish ta’lim samaradorligining eng muhim omillaridan biridir”.

**Topshiriq:** Mazkur fikrga nisbatan munosabatingizni FSMU orqali tahlil qiling.


## Venn Diagrammasi metodidan foydalanish


**Metodning maqsadi:** Bu metod grafik tasvir orqali o‘qitishni tashkil etish shakli bo‘lib, u ikkita o‘zaro kesishgan aylana tasviri orqali ifodalanadi. Mazkur metod turli tushunchalar, asoslar, tasavurlarning analiz va sintezini ikki aspekt orqali ko‘rib chiqish, ularning umumiy va farqlovchi jihatlarini aniqlash, taqqoslash imkonini beradi.

### Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar ikki kishidan iborat juftliklarga birlashtiriladilar va ularga ko‘rib chiqilayotgan tushuncha yoki asosning o‘ziga xos, farqli jihatlarini (yoki aksi) doiralar ichiga yozib chiqish taklif etiladi;
- navbatdagi bosqichda ishtirokchilar to‘rt kishidan iborat kichik guruhlarga birlashtiriladi va har bir juftlik o‘z tahlili bilan guruh a’zolarini tanishtiradilar;
- juftliklarning tahlili eshitilgach, ular birgalashib, ko‘rib chiqilayotgan muammo yohud tushunchalarining umumiy jihatlarini (yoki farqli) izlab topadilar, umumlashtiradilar va doirachalarining kesishgan qismiga yozadilar.

**Namuna: Falsafani turli yo‘nalishlarda o‘qitishning farqli jihatlari o‘ziga xosliklari**





Ўқув жараёнида муаммолар ва муаммоли  
вазиятларни ечишга йўналтирилган интерфаол  
методлар

“SWOT-универсал  
таҳлил”

“Дебат”,

*Муаммоли вазият  
яратиш*”

“Резюме”,

“Т-чизмаси”,

“Венн  
диаграммаси”,

“Органайзер”,

Ҳар хил чизмалар, жадваллар  
ёрдамида амалга ошириладиган  
интерфаол методлар:

### **III. NAZARIY MATERIALLAR MA’RUZALAR MAZMUNI (8 soat ma’ruza)**

#### **1-mavzu: O‘zbek falsafasining tarixiy ildizlari.**

1. O‘zbek falsafasi fanining predmeti, ob’ekti va vazifalari
2. Milliy davlatchilik va falsafiy tafakkurni shakllanishi
3. O‘zbek falsafasining takomil bosqichlari

Insoniyat yaratgan ma’naviy boyliklar orasida falsafa ilmida to‘plangan xikmatlar xazinasi, atoqli faylasuflar merosi, ularning asarlari muhim o‘rin tutadi. Har bir davrning donishmandlari o‘z yurti va xalqining tafakkuri, ruhiyati hamda orzu intilishlarini falsafiy ta’limotlarida ifoda etganlar, jamiyat farovonligi va millat ravnaqi uchun xizmat qiladigan g‘oyalarni o‘rtaga tashlaganlar. Xalqni buyuk maqsadlar sari yetaklovchi g‘oyalarning muayyan davr mafkurasiga aylanishida falsafiy bilimlar katta ahamiyat kasb etadi. Shu ma’noda, millatimizning daholari hisoblangan mashhur allomalarining hayotbaxsh g‘oyalarni va o‘lmas asarlarini o‘rganish, targ‘ib-tashviq qilish tom ma’noda milliy o‘zlikni anglashga beqiyos xizmat qiladi.

Umuman, biz yashayotgan dunyo so‘ngi yillarda nihoyatda o‘zgarib ketdi. Xususan, Vatanimiz tarixida XX asrning 90-yillarida olamshumul hodisalar yuz berdi. Mamlakatimiz mustaqillikka erishib, o‘ziga xos taraqqiyot yo‘lini tanladi, rivojlanishning «o‘zbek modeli»ni amalga oshirishga kirishdi. Xalqimizning huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati barpo etish zarurati dunyoqarashni tubdan o‘zgartirish, sho‘rolar davrida hukm surgan aqidalardan voz kechish, milliy istiqlol g‘oyasini xalqimiz ongi va qalbiga singdirish, shu asosda milliy ma’naviyatni yuksaltirishni taqozo etmoqda. Bunda ijtimoiy fanlar, xususan, falsafiy fanlar rivoji katta ahamiyat kasb etadi. Zero, Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ta’kidlaganidek, «Ko‘p asrlik tariximiz shuni ko‘rsatadiki, inson dunyoqarashining shakllanishida ma’rifatning, xususan, ijtimoiy fanlarning o‘rni beqiyos. Bu jamiyatshunoslik bo‘ladimi, tarix, falsafa, siyosatshunoslik bo‘ladimi, psixologiya yoki iqtisod bo‘ladimi - ularning barchasi odamning intellektual kamolotga erishuviga katta ta’sir kuchiga ega»<sup>1</sup>.

Alovida ta’kidlash lozimki, Yevropa va sobiq ittifoqning mintaqamizdan boshqa hududlarida yashaydigan mutaxassislarining falsafa tarixiga bag‘ishlangan kitob, risolalarida gap, asosan, G‘arb mutafakkir va olimlari merosi, ularning gnoseologiyaga qo‘shgan hissasi to‘g‘risida boradi. Bunda Suqrot, Platon, Aristotel, I.Kant, I.Gegel, F.Nisshe,

<sup>1</sup> Каранг. Ислом Каримов. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт-пировард мақсадимиз. 8-жилд. Т.: «Ўзбекистон», 2000. 504-бет.

3.Freyd va boshqalarning nomlari tilga olinadi. ko‘plab oqim va ta’limotlar ushbu olimlariing nomi, ta’limoti hamda asarları bilan bog‘liq holda shakllangan. Ularning falsafaga qo‘shgan hissaları xilma-xil, ammo bu sohada ahamiyatga molik xizmatları va falsafani boyitgan fikr-mulohazalari kup. Biz ularning fanga qo‘shgan hissalarini inkor etmoqchi yoki kamsitmoqchi emasmiz.

Ammo O‘zbekistondagi ilm-fan, jumladan falsafa rivoji ham o‘zining uzoq va shonli tarixiga ega, uning an’analari olis o‘tmish, asrlar qa’ridan boshlanadi. O‘rta Osiyo mintaqasida bu masalaga oid ilmiy qarashlar takomili yetarli darajada o‘rganilmagan.

Yurtimizda yashagan allomalar ijodida falsafa masalalari qay tariqa yoritilganligini tahlil qilamiz. Asosiy maqsad - tarixiy tadqiqot emas, balki masalani falsafiy tamoyillar bilan bog‘liq tarzda qo‘yilishi va tahlil qilinishidir. Bu boradagi intilish «Osiyosentrizm» tarzida emas, balki avlod va ajdodlarimiz yaratgan falsafiy merosni insoniyat tafakkurining tarkibiy qismi sifatida xolisona o‘rganishga harakat qilishdan iboratdir.

Hozirgi davrda o‘zining milliy falsafasi va taraqqiyot modelini uyg‘unlashtirish, shu orqali rivojlanishining yangi bochqichga ko‘tarilishiga harakat qilayotgan xalqlar va davlatlar ko‘p. Bu borada muayyan tajriba ham to‘plangan. Bugungi kunda xitoy falsafasi, hind falsafasi, yunon falsafasi, ingliz falsafasi, fransuz falsafasi yoki nemis falsafasi atamalariga o‘rganib qolganmiz. Bu falsafa maktablarining har biri insoniyat sivilizatsiyasi haqida o‘ziga xos yondoshuvlari qatori o‘z xalqining betakror qiyofasi, milliy an’analari, mentaliteti va ma’naviyatini aks ettirishi bilan ana shunday e’tirofga sazovor bo‘lgan.

Mustaqillikka erishganimizdan keyin ana shu boy falsafiy merosimiz “O‘zbek falsafasi” degan nomi bilan qayta tiklanib, yangi ma’no-mazmun kasb etdi va hozirgi takomil bosqichiga qadam qo‘ydi. Falsafaning asliyatiga qaytishi, sobiq ittifoqdan qolgan oqibatlarning asta-sekin bartaraf etilishi, inkor va yangilanish, o‘zgarish va rivojlanish tamoyillari bilan bog‘liq bu jarayon mamlakatimizda mustaqillik yillarida amalga oshirilayotgan islohotlarning tarkibiy qismiga aylandi.

O‘zbek falsafasi tushunchasi xalqimizning falsafiy tafakkuri. Ongi va dunyoqarashining rivojlanish bosqichlari, tushuncha va kategoriyalari, ma’naviy tamoyillari va o‘ziga xos xussiyatlarini ifodalaydi, qadimgi zamonlardan shakllanib bugungi kungacha yetib kelgan ilmiy-falsafiy meros, u bilan bog‘liq jarayonlar, shu sohadagi g‘oyalar, nazariya va ta’limotlar majmuni anglatadi. Bundan tashqari, u mustaqillikka erishgan xalqimizning taraqqiyot yo‘li va rivojlanish tamoyillari, demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonining falsafiy, ma’naviy omillari, amalga oshirilayotgan bunyodkor ishlari ta’sirida aholining ongi va tafakkurida ro‘y berayotgan o‘zgarishlarni ham o‘zida aks ettiradi.

Markaziy Osiyoda vujudga kelgan qadimgi falsafiy ta’limotlar, ular ilgari surgan g‘oyalar bugungi kunda ham muhim ahamiyatga ega. Sanab o‘tilgan qadimgi falsafiy ta’limotlar ya’ni zardushtiylik, uning bosh kitobi – “Avesto”, Moniy ta’limoti “Moniy

yozuvi” , mazdakiylik harakati jamiyatda adolat, erkinlik, teng huquqlilik tamoyillarini qaror toptirishga da’vat etgan. Shu ma’noda, vatanimizning o’sha davrda shakllangan va rivojlangan boy madaniyati, milliy ma’naviyatimiz, falsafamiz jahon falsafiy tafakkuri rivojiga katta ta’sir ko’rsatgan.

Yana shuni ta’kidlash kerakki, Zardusht dini va keyinchalik uning asosida paydo bo‘lgan Moniy dini ko‘pxudolikdan yakkaxudolikka o’tgan davrini belgilab bergen dinlar edi. Ya’ni bizda islomgacha yakkaxudolik haqidagi aqidalar shakllanib bo‘lgan edi. “Avesto” yana shunga guvoxlik beradiki, unda insoniyatning olam tuzilishi, tabiat va uning ne’matlaridan foydalanish yo‘riqlari, inson axloqi, jamiyat tizimi, insonning orzu-armonlari, o‘zini va olamni bilish qobiliyati bir butun xolda shakllana boshladi. Odamlarning muqaddaslik, rux, jon, farishta, tana, tuproq, suv, olov haqidagi tushunchalari ifodalandi. Ya’ni mifologiyadan dinga o’tish va dinlar asosida bir tizimli falsafiy dunyoqarash, amaliyotda esa shu dunyoqarash asosida qonun-qoidalar ishlab chiqish yo‘lga qo‘yildi. Shu bois ham zardushtiylik dini nafaqat Markaziy Osiyo xalqlari tarixida, balki umuminsoniyat tarixida tafakkuriy – e’tiqodiy va amaliy-ijtimoiy yuksalish edi. Ko‘pgina olimlar fikriga ko‘ra, Zardusht- buyuk mutafakkir inson, zabardast shoir bo‘lgan. Uning qarashlari islom dini kirib kelgunga qadar o‘ziga xos ahamiyatga ega bo‘lgan.

Yana shuni ta’kidlash kerakki. yurtimiz xalqlari sivilizatsiyasi, ongi va tafakkuri, milliy qadriyatlarini arab dunyosi, madaniyati rivojiga ham katta ta’sir ko’rsatgani shubhasiz. Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Ulug‘bek kabi mutafakkir olimlar, Al-Buxoriy, At-Termiziy, Najmiddin Kubro, Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband kabi ilohiyot ilmining zabardast allomalari, Lutfiy, Yusuf Xos Xojib, Navoiy, Bobur, Bedil, Mashrab kabi ulug‘ zotlarning‘ kamolotida nafaqat islomiy tafakkur, balki sivilizatsiyamiz madaniyati va qadriyatlarini ta’siri beqiyosdir. Ularning islom falsafasiga, uni zamona zayllari orasidan o’tishi jarayoniga ta’siri to‘g‘risida maxsus tadqiqotlar olib borish mumkin. Zamonaviy islom ilohiyotchklari Al-Buxoriy asarlarini «Qur’on»dan keyingi manba sifatida tan olgani, At-Termiziy, Zamashshariy, Yassaviy, Naqi band va boshqa allomalarimiz merosini qadrlashk bejiz emas. Hozirgi davrda falsafa tarixi bo‘yicha ba’zi mutaxassislar suhbat va bahslarda Al-Buxoriy, Termiziy, Kubro va boshqalar ijodida sof falsafiy mavzular, masalan, ontologiya va gnoseologiya masalalari qarab chiqilmagan, degan fikrni bildiradilar. Bu fikrga qo‘silib bo‘lmaydi. Balki, falsafaning g‘arbcha talqinidagi ontolog‘iya va gnoseologiya masalalari bu mutafakkirlar merosida alohida, maxsus mavzu tarzida qarab chiqilmagandir. Ammo, mazkur masalada xam xalqimizniig‘ «Izlagan topadi» degan hikmatli so‘ziga amal qilish lozim. Bu borada Ibrohim Mo‘minovning Bedil ijodiga bag‘ishlang‘an asari yoki Omonulla Fayzullaevning Al-Xorazmiy falsafiy merosi haqidagi kitobi va Al-Farg‘oniy to‘g‘risidagi maqolalari ibrat bo‘lishi mumkin. Qolavsrsa, yuqorida nomlari tilga oling‘an allomalar o‘z davrida keng tarqalgan tabiiy-

ilmiy bilimlardan xabardor bo‘lganlar, ularni o‘rganganlar, ushbu bilimlarga tayanib, o‘zlarining ijtimoiy-falsafiy qarashlarini bayon qilganlar. Ular o‘scha davrning ontologik va gnoseologik tushuncha hamda tamoyillarini muayyan haqiqatlar sifatida qabul qilganlar va o‘z asarlarida qo‘llaganlar. Arab xalifaligi VIII-IX asrda Osiyo, Afrika va Yevropaning bir qismini egallagan ulkan imperiyaga aylangan edi. Yagona muomala tili arab tili edi. Barcha madrasalarda shu tilda ta’lim olib borilardi, ilm-fan ham arab tilida yaratilardi. Bu xol turli o‘lkalar, xalqlardan yetishib chiqqan olimlar, ziyoliylarning o‘zaro muloqot olib borishi, tahsil olishi, fan yutuqlaridan o‘zaro bahramand bo‘lishlari uchun qulay sharoitni vujudga keltirardi.

Ilm-fan, ma’naviyatga e’tibor G‘aznaviylar, Qoraxoniylar hukmronligi davrlarida ham davom etgan. Ayniqsa Xorazmda shoh Ma’mun davrida barpo etilgan “Dorul ulum”ning tarixiy ahamiyati beqiyosdir. Dunyo ilm-fan tarixida u “Xorazm Ma’mun Akademiyasi” nomi bilan mashhur. Abu Rayhon Beruniy, Muso al-Xorazmiy, Ibn Sino kabi ko‘plab allomalar ana shu ilmiy muhitning natijasida tarbiyalangan isbot talab qilmaydi.

Muayyan bir mintaqada ma’lum bir davr ichida tushkunlikda bo‘lib, so‘ngra yuksaklikka erishilgan holat g‘arb tillarida odatda renessans, bizda esa uyg‘onish davri deyiladi. Yurtimiz tarixida IX – X asrlar buyuk, qudratli **Uyg‘onish davri** edi. Demak, insoniyat tarixidagi ulkan uyg‘onish davrlaridan biri bizning mamlakatimiz, mintaqamizda ro‘y bergen va bu yuksalish ajdodlarimiz orqali butun bashariyatga tegishlidir.

Ushbu davr falsafasi falsafiy tafakkuri mamlakatimizda islom dinining tarqalishi va qadimgi yunon falsafiy merosini o‘rganishga qiziqishning ortishi bilan uzviy bog‘liqidir. Bu davr farbda falsafa, fan va san’at tushkunlikka yuz tutgan bir vaqtida Sharqda qadimgi Yunon ilg‘or falsafiy, tabiiy-ilmiy an'analar va azaliy mahalliy an'analar negizida ma’naviy hayot yuksak rivojlangan davrdir. Bu Amudaryo va Sirdaryo bo‘ylarida yashagan xalqimizning dahosi eng yuksak darajaga ko‘tarilgan, uning atoqli namoyandalari jahon madaniyati sahifalariga o‘zlarining o‘chmas nomlarini muhrlab ketgan davr falsafasidir.

### Nazorat savollari

1. O‘zbek falsafasini predmetini ating?
2. O‘zbek falsafasini nechta takomil bosqichi mavjud?
3. Milliy davlatchilik va falsafiy tafakkurning o‘zaro nisbati qanday?
4. Dunyoqarashning asosiy tarixiy shakllarini ta’riflang.
5. Nima uchun falsafa tarixida fikrlar rang-barangligi me’yor hisoblanadi?
6. Ayrim insonning yaxlit falsafiy dunyoqarashi falsafiy plyuralizm asosida qanday shakllanadi?
7. Falsafa tarixida «falsafaning asosiy masalasi»ga ta’rif berish qanday amalga oshirilgan?
8. Hozirgi dunyoda falsafa qanday vazifalarni hal qilmoqda?
10. Mustaqillik davridagi “Falsafaning siymosi”ni ko‘rsating

## **2-Mavzu:Globallashuv sharoitida yangicha tafakkur shakllanishini rivojlantirish zarurati**

- 1. Globalashuv jarayoni to‘g‘risida zamonaviy yondashuvlar va madaniyatlararo integratsiya masalasi**
- 2. Yangicha tafakkur shakllanishida falsafaning o‘rni**
- 3. Madaniyatlararo muloqot-globalashuv jarayonining muhim sharti**

Hozirgi kunda jahon taraqqiyotida shakllangan yangi umumsayyoraviy tartib, tamaddunning mazmun-mohiyati, davlatlar va kishilar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarining kengayishi va murakkablashishi, dunyo miqyosida axborot makoni, kapital, tovar hamda ishchi kuchi bozorida tamoman yangi vaziyat vujudga kelishi, atrof-muhitga texnogen ta’sirning kuchayishi, axborotmafkuraviy va diniy-ekstremistik xurujlar xavfining ortib borishi, jamiyat hayotining barcha sohalari, iqtisodiyot, siyosat, mafkura, madaniyat, hatto shaxsiy turmush tarzini ham globalashuv jarayoni bilan bog‘lashmoqda. Yuqorida ta’kidlanganidek globalashuv jarayonlari jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojining barcha jabhalarini qamrab olib, uning ko‘rinishlari inson hayotining turli sohalariga o‘z ta’sirini ko‘rsatib kelmoqda. Bunday ta’sirni, ya’ni globalashuv sohalari va uning ko‘rinishlarini Eduard Azroyans umumiy tarzda quyidagicha ifodalaydi<sup>1</sup>.

Globalashuv jarayonlari jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy sohalarining barcha jabhalariga o‘z ta’sirini o‘tkazib, ularning o‘zgarishi va rivojlanishiga olib kelayotganligini ko‘rsatmoqda, jumladan:

- texnologiya sohasida dunyo miqyosida mahsulotlar ishlab chiqarishni monopollashtiruvchi moliyaviy jarayonlarni keltirib chiqarayotganligi, xalqaro maydonda moliyaviy kompyuter tarmog‘i orqali dunyoning bir burchagidan boshqasiga istalgan miqdorda mablag‘ning o‘tkazilishi, xalqaro maydonda raqobatni rivojlantiruvchi metatexnologiyalarning rivojlanishi (kosmik yo‘ldosh, kompyuter, uyali telefon, internet va h.k.) bilan belgilanishi;

- ekologiya sohasida, iqtisodiyotning rivoji uchun yer resurslari (energetik va xom ashyo zahiralari)dan foydalanish, buning evaziga insoniyat hayotiga xavf tug‘dirayotgan tabiat va atrof-muhit holatining keskin yomonlashuvi, biosferaga texnogen ta’sirlarning kuchayishi, jonivor va o‘simlik turlarining yo‘qolib ketishi;

- iqtisodiyot sohasida, dunyo miqyosida transmilliy korporatsiyalarning shakllanishi, iqtisodiyotning mintaqaviylashuvi, jahon miqyosida savdo va xizmatlarning jadallahuvi;

- madaniy sohada, ommaviy madaniyatning rivojlanishi, ayniqla, musiqa, kino, teatr, shou-ko‘rsatuvalar, kiyinish, ommaviy-axborot vositalari faoliyatlarining bir

<sup>1</sup> Азроянц Э. Глобализация: катастрофа или путь к развитию. –М.: Новый век, 2002. –С.316

xillashuvi, turli xalqlar madaniyatining o‘zaro ta’siri, bir-birini boyitishi tufayli madaniyatlararo aloqalarning mustahkamlanishi va yangi zamonaviy an’analarning shakllanishi va h.k.lar

Bugungi kunda falsafiy tafakkurning yangilanishi har bir jamiyat a’zosining ijtimoiy qiyofasi, ruhiy dunyosi, maqsad va ehtiyojlarining o‘zgarishi barobarida jamiyat tafakkurining o‘zgarishida namoyon bo‘lmoqda. Insonning falsafiy tafakkur tarzi va yo‘nalishiga ta’sir ko‘rsatadigan, g‘oyaviy-nazariy rol o‘ynaydigan tasavvurlar mavjudki, ular metodologik tamoyillarda mujassamlashgan. Darhaqiqat, falsafa turli davrlarda dunyoning turli mamlakatlarida to‘plangan bilimlarni, tajribalarning yakunlarini umumlashtiradi, yaqinlashtiradi va birlashtiradi. Shu asosda, fanlarning yaqinlashuvi, muammolarning mushtaraklashuvi insoniyat ilmiy va amaliy faoliyatining kengayishi uchun yangi imkoniyatlarni yuzaga keltiradi. Inson bu tafakkur orqali o‘z mohiyati, jamiyat, tabiat haqida tizimli bilimlar ko‘nikmasini hosil qilish bilan cheklanmay, ular asosida ilmiy tafakkur rivoji, amaliy faoliyat uchun muhim bo‘lgan umumiylar chiqarishga ham intiladi. Natijada fan uchun yangi kashfiyotlar dunyo yuzini ko‘radi. Bu esa fanning takrorlanmas yutug‘idir. Sir emaski, hozirgi davrda falsafa faniga bo‘lgan qarash keskin o‘zgarib bormoqda. Yoshlarning mafkuraviy immunitetini shakllantirish, ularning dunyoqarashini tarbiyalash va dunyoga munosabatini takomillashtirib borish bugungi kunning dolzarb masalalari qatoriga kiradi. Chunki yosh avlod ertangi kunimiz davomchilaridir.

Shu ma’noda, yoshlarda ijtimoiy faollik pozitsiyasini shakllantirishda falsafa va uning roli hamda ahamiyati xususida to‘xtalib o‘tar ekanmiz, uning quyidagi jihatlari ahamiyatga molik:

birinchidan, falsafiy bilimlar bilan oziqlangan yoshlarda falsafiy dunyoqarash, ijtimoiy faollik pozitsiyasi shakllanadi, ularda olamga, voqeа- hodisalarga, atrofini o‘rab turgan jamiyat a’zolariga bo‘lgan ongli munosabat shakllanadi;

ikkinchidan, yoshlarda falsafiy bilimlar natijasida har qanday muammoli vaziyatlarda ham o‘zini o‘zi boshqara olish qobiliyati rivojlanib, o‘sib boradi;

uchinchidan, falsafa o‘zining yondash, ya’ni uning tarmoqlari bilan birgalikda yoshlarda axloqiy sifatlarni “Etika” fani orqali, go‘zallik, nafosat, nafislik singari tushunchalarni “Estetika” fani orqali, jamiyat, inson, ijtimoiy taraqqiyot va uning qonuniyatlarini ijtimoiy falsafa orqali tushuntiradi, unib-o‘sib kelayotgan barkamol yoshlar ongida universal tabiatga ega bo‘lgan dunyoqarash rivojlanishida birlamchi ahamiyat kasb etadi;

to‘rtinchidan, falsafa umuminsoniy qadriyatlar shakllanishida ham o‘z hissasini qo‘sha oladi. Demak, har qanday muammo-masalani falsafiy tahlil qilishda, shuningdek, bu boradagi ilmiy tadqiqot ishlarini baholash va ularga qo‘yiladigan talablarni belgilashda yuqoridagilarga alohida e’tibor qaratish zarur. Bundan tashqari, falsafaning quyidagi

vazifalari ham mavjud bo‘lib, u nafaqat yoshlar, balki butun kishilik jamiyatiga ham taalluqli: u kishilarda olam haqida bir butun dunyoqarashni shakllantirishga qaratilgan.

Falsafa metodologik vazifani ham ado etadi, u barcha fan vakillarini ilmiy bilishning asosiy shakllari, usuli va tamoyillari bilan qurollantiradi. Shuningdek, falsafa gnoseologik, aksilogik, gumanistik tarbiyaviy vazifalarni bajaradi. Shu bilan birga, u shaxsda jamiyat, insoniyat oldidagi ijtimoiy mas’uliyat hissini uyg‘otadi. Falsafaning aynan mana shu vazifasi milliy g‘oyamizning – ozod va obod Vatan, erkin va farovon turmush tarzini barpo etish singari bosh g‘oyasini hayotga tadbiq etishimizda katta xizmat ko‘rsatadi. Chunki xalq farovonligi, yurt tinchligi, vatan taraqqiyoti yo‘lida ildam harakat qilishi kerak bo‘lgan har bir komil insonning tarbiyasida aynan ijtimoiy mas’uliyat hissi jamiyat taraqqiyotini mustahkamlashda, uning rivojlanish qonuniyatlarini to‘g‘ri belgilab olishimizda dasturulamal bo‘lib xizmat qiladi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev ta’kidlaganidek, ‘Buning uchun o‘zini jamiyatimiz, yoshlارimiz ma’naviyati, g‘oyaviy-mafkuraviy tarbiyasi uchun mas’ul deb bilgan insonlar – bu mahalla yoki diniy tashkilotlar bo‘ladimi, huquq-tartibot idoralari xodimlari yoki katta ta’sir kuchiga ega ijodkor ziyorolar bo‘ladimi – ularning barchasi, ayniqsa, faol bo‘lishlari lozim’.

Xulosa qilib aytganda, yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishda, avvalo, ko‘plab islohotlar amalga oshirilayotganligini inobatga oladigan bo‘lsak, bu borada hali o‘z yechimini kutayotgan masalalar ham mavjud. O‘z o‘rnida ushbu masalalarni hal etishda buyuk ajdodlarimizdan meros bo‘lib qolgan nodir qo‘lyozmalarda yozilgan ilmiy-falsafiy meroslardan to‘g‘ri va samarali foydalanish maqsadga muvofiq. Zero, ertangi porloq kelajagimizni barpo etishda salohiyatlari yoshlarni tarbiyalash dolzarb ahamiyat kasb etuvchi doimiy masalaga aylanmog‘i darkor.

Globallashuv jarayoni eng ilg‘or, yangi texnologiyalar asosida ishlab chiqarishni texnik qayta jihozlash, tezkor zamонавиј kommunikatsiya va aloqa tizimlarining rivojlanishi, ilmiy, texnik va boshqa, odamlar hayotfaoliyati uchun zarur bo‘lgan axborotni jamlash va taqsimlash, misli ko‘rilmagan mehnat unumdarligini ta’minlash uchun qulay sharoit yaratib, bu borada cheklanmagan imkoniyatlarga yo‘l ochmoqda. Bu esa o‘z navbatida turli mamlakatlarning o‘zaro yaqinlashuviga, jahon ijtimoiy hayoti tizimiga integratsiyalashuvi jarayonlarini faollashtirishga xizmat qilmoqda. Biroq globallashuv kishilik tamadduni taraqqiysining tabiiy mevasi ekanligi va ularning ijobiy jihatlarini inkor etmagan holda hozirgi dunyoda bir qator ixtilof va ziddiyatlarni keltirib chiqarayotgan jihatlarini ham e’tibordan qochirib bo‘lmaydi. Bu haqda fikr yuritganda, avvalo, madaniyat va uning bosh tomirini tashkil etgan ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni asrab-avaylash dolzarb ahamiyat kasb etayotganini ta’kidlash lozim. Chunki bugungi kunda ular har qanday mamlakat, jumladan, O‘zbekiston uchun olg‘a harakat qilishning samarali sharti, jamiyat ma’naviy-axloqiy sog‘lomligining kafolati, kuchli davlat sifatida jahon hamjamiyatida munosib o‘rin egallashda mustahkam tayanch bo‘lib xizmat qiladi.

Harakatlar strategiyasining “Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minlash, chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish”, deb nomlangan beshinchi ustuvor yo‘nalishiga munosabat bildirar ekan, falsafa fanlari doktori, professor I.Saifnazarov inson e’tiqodini shakllantiruvchi uch omilini ko‘rsatib o‘tadi:

- inson hayotining maqsadi va mazmunini anglatadigan, hayotiy dunyoqarashini belgilaydigan, xalqimizning buyuk va qadimiy merosida ifodalangan gumanitar bilimlar;
- shaxsnинг intellektual salohiyatini yuksaltiradigan va chuqurlashtiradigan, ta’lim jarayonlarini baholashning eng xolis yo‘llarini, tamoyillarini, usullarini shakllantiradigan ilmiy-nazariy, ijtimoiy-falsafiy bilimlar;
- o‘zga xalqlar hayoti, madaniyati, ma’naviyati, dunyoqarashini o‘rgatadigan, uni o‘zi mansub milliy madaniyat bilan taqqoslab, har birining munosib o‘rnini anglashga imkon beradigan hozirgi zamon ilg‘or ijtimoiy bilimlar.

### **Nazorat savollari**

1. Globallashuv jarayoni to‘g‘risida qanday zamonaviy yondashuvlar mavjud?
2. Yangicha tafakkur shakllanishida falsafaning o‘rnini qanday baholaysiz?
3. Madaniyatlararo muloqot-globallashuv jarayonining muhim shartimi?

### **3-mavzu: XX asr o‘zbek falsafasi va uning rivojlanish strategiyasi**

- 1. Jadidchilik harakatining ijtimoiy-siyosiy jihatlari va hozirgi zamon falsafasi**
- 2. Totalitar mafkuraning falsafaga ta’siri**
- 3. XX asrda yetishib chiqqan o‘zbek faylasuflari**

Har qanday falsafiy tadqiqot muammo doirasini va ilmiy kategoriyalarni, ob’ektning ichki va tashqi funksional xususiyatlarini tizimli belgilarini aniqlab olishdan boshlanadi. Mazkur xususiyatlar va belgilarni aniqlab olmaslik eklektizmga, ob’ekt doirasini behad kengayib ketishiga olib keladi. X.G.Gadamer aytganidek, tadqiqotga oid tushunchalarni aniqlash ob’ektning “ma’naviy evolyusiyadagi o‘rni qanchalik chuqur” ekanini bilishga yordam beradi. Bizning tadqiqotimiz uchun shunday tushunchalar, kategoriyalar “jadid”, “jadidchilik”, “ma’rifat”, “ma’rifatchilik” hisoblanadi. Jadidchilik ma’rifiy, ijtimoiy-siyosiy harakat sifatida paydo bo‘lishining asosiy sababi bevosita Turkistonning ichki muhitining fenomeni bo‘lib, Rossiya imperiyasining XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab O‘rta Osiyoni istilo qilishi bilan va buning natijasida vujudga kelgan mudhish ijtimoiy-siyosiy vaziyatning mahsuli bo‘ldi. Jadidchilik harakatining vujudga kelishining ob’ektiv va sub’ektiv sabablarini yoritishimizda o‘sha davrning manbalari hisoblangan o‘zları jadidchi va jadidchilikka xayrxoh bo‘lgan ma’rifatparvar kishilarning jumladan,

Ahmad Donishning “Navodir al-vaqoe” (“Nodir voqealar”) hamda “Risolai tarixi amiron mang‘it” (“Mang‘it amirlari tarixi haqida risola”) asarlarida, tarixchi Mirza Muhammad Abdulazim Somiy Bo‘stoniyning “Tarixi salotini mang‘itiya dor ussaltanai Buxoroi sharif” (“Buxoro sharif sultanatidagi mang‘it hukmdorlari tarixi”), tarixchi Mirzo Salimbek ibn Muhammad Rahimning “Tarixiy Salimiyy” asarlariga tayanib, va Abdurauf Fitratning ikki asari “Munozara” va “Bayonati sayyohi hindi” asarlari asos bo‘lib xizmat qildi.

Chorizmning bosqinchilik harakati o‘lkamizni mustamlakaga aylantirish bilan chegaralaniq qolmay, mahalliy aholining madaniyati va ma’naviy asoslariga putur yetkazishga ham qaratilganligi uning siyosati davomida o‘z aksini topib bordi. Turkiston mustamlakachilarini mahalliy xalqlarni o‘ta qoloqlikda ushslashni o‘zlariga shior qilib olgan. Ularning ko‘rsatmasi bilan xalqqailozi boricha mumkin qadar ko‘proq paxta ektirish, ularni tinimsiz ishslashga majbur etish, toki bu xalqning boshqa narsalarni o‘ylashga, siyosiy voqealarni anglab yetishga bir zum ham vaqtin, xohishi qolmasligini doimo nazarda tutib kelgan

Biz jadidchilik harakatining mazmun-mohiyati haqida gapirishdan oldin tariximiz sahifalarida “oq dog‘lar” deb ataladigan bu harakatning asl mohiyatini, maqsad-muddaolarini xolisona o‘rganish va baholash o‘z yechimini kutayotganligini ta’kidlamoqchimiz. Chunki, g‘oyaviy muxoliflar yaqin kunlargacha jadidchilikni faqat ma’rifatchilik harakati deb baholab keldilar. Maqsad – jadidchilikning doirasini toraytirish, sotsialistik kommunistik mafkuradan boshqasi keng xalq ongini qamrab olishi, egallashi mumkin emas, degan soxta tushunchaning asorati edi. Shuning uchun ham g‘oyaviy muxoliflar jadidchilik harakatining burjua liberal, millatchilik harakati, mayda burjua ideologiyasini ifodalovchi oqim sifatida qarab kelingan edi. Aslida esa jadidchilik:

- 1) jamiyatning barcha qatlamlarini jalb eta oldi. Uyg‘onish mafkurasi bo‘lib xizmat qildi;
- 2) mustaqillik uchun kurash olib bordi. Uning g‘ayrat va tashabbusi bilan vujudga kelgan Turkiston muxtoriyati bu yo‘ldagi amaliy harakatning dastlabki natijasi edi;
- 3) maorif va madaniyatni, matbuotni ijtimoiy-siyosiy maqsadlarga moslab chiqdi. Mana shunday islohotlarni amalga oshirishga bel bog‘lagan jadidlarning ilg‘or qismi mahalliy aholini jahonning taraqqiy etgan davlatlarida bo‘layotgan o‘zgarishlar va yangilanishlardan xabardor qilib borish lozimligini yaxshi anglaganlar.

Shu o‘rinda professor B.Qosimovning jadidchilikka bergen ta’rifi ham e’tiborlidir. “Jadidchilik, deydi B.Qosimov,-ham ijtimoiy, ham siyosiy, ham madaniy harakatdir. Shuning uchun ijtimoiyki, u jamiyatning barcha qatlamlarini jalb eta oldi, milliy uyg‘onish ideologiyasi bo‘lib xizmat qildi. Shuning uchun siyosiyki, u mustaqillik uchun kurash olib bordi... U madaniy harakat ham edi – adabiyotni yangiladi, matbuot va teatrchilikni yo‘lga qo‘ydi, maorifda esa “yangi maktab konsepsiysi” bilan chinakam inqilob yasadi. Eng muhimmi, bularning barchasini ijtimoiy-siyosiy maqsadlarga moslab ko‘rib chiqdi”<sup>1</sup>.

Darhaqiqat, milliy o‘zlikni anglashning o‘sishiga muhim turtki bo‘lgan va milliy ozodlik g‘oyasini shakllantirib, o‘z faoliyati bilan uni amalga oshirishga uringan kuchli progressiv harakat – jadidchilik bo‘lgan. U jahondagi umuminsoniy va milliy qadriyatlarga asoslanib, jamiyatning pishib yetilgan rivojlanish taraqqiyoti va o‘lka tub yerli aholisining zarur manfaatlariga javob berardi. Qoloqlik va jaholat, aholining ayanchli ahvoli, Turkistonning jahon sivilizatsiyasidan orqada qolib kelishi, Islom va shariatning oyoq osti qilinishi va bunday og‘ir fojiali hayotdan qutulish, erk va ozodlikka erishish haqida o‘z zamonasining ilg‘or ziyoli, munavvarlaridan fikrmulohazalar paydo bo‘ldi. Xullas, jaholat uyqusidan uyg‘onish tarixiy zaruriyatga, rivojlanishning ob’ektiv talab va ehtiyojiga aylandi. Milliy demokratlar bo‘lgan jadidchilik harakatining eng muhim jihatlaridan biri milliy ozodlik kurashi mafkurasi va taktikasini o‘rganishga qaratilgan edi. Ular Yevropa mamlakatlarining davlat qurilishi va qonunchiligi, Rossiya va Sharq xalqlarining mustamlakachilikka qarshi kurashi va demokratik harakatlari mafkurasi hamda taktikasining teng amaliy jihatlarini o‘rganib, undan o‘z mamlakatlariga mosini, to‘g‘ri keladiganini tanlab olishdi. Natijada, milliy ziyolilarning mafkuraviy va ijtimoiy-siyosiy faoliyati kuchayishi, jadidlarni ikkiga ajralishiga ya’ni sof madaniy-ma’rifiy ishlar tarafдорлари va ikkinchidan ijtimoiysiyoziy institutlarni isloh qilish, mustamlakachilik va feodalizm kishanlaridan ozod bo‘lish tarafдорларига bo‘linishларига sharoit yaratdi.

Jadidchilar islom olami faylasuflari qoidalarida mavjud bo‘lgan imkoniyatlardan foydalangan holda ilmiy-gumanistik, falsafiy nazariyalarni ilgari surdilar. O‘zbekiston faylasuflarining ustozи, marhum akademik Ibrohim Mo‘minov Behbudiyning “Fan rahbarlariga, olimlarga” maqolasini tahlil qilib uning falsafiy qarashlari haqida to‘xtalib shunday yozadi: Behbudi moddiyunchilik va dahriylik, ishtirokiyunchilikka qarshi muvaffaqiyatli kurashmoq uchun ba’zan kalom falsafasi xulosalari ham ojizlik qilib qolishi mumkinligini anglab yetgan.

Faylasuflarning fikricha garchand jadidizm, masalan fransuz ma’rifatparvarligidan bir necha asr keyin yuz bergen hodisa bo‘lsa-da, u o‘z mohiyati bilan inqilobga qadar bo‘lgan O‘zbekistonning madaniy va ma’rifiy hayotida, fransuz ma’rifatparvarligi singari, ijobiy rol o‘ynadi. Jadidlarning falsafiy asarlarida olamiy aql, insonni Xudo bilan bog‘lovchi aql degan mistik mulohazalar mavjud bo‘lsa-da, jadidlar aqlning bir tomondan, ruhiy jarayon ekanligini va ikkinchi tomondan aql tashqi ta’sirning, ta’lim-tarbiyaning mahsuli ekanligini e’tirof etadi.

Sobiq ittifoq davrida hayotning barcha sohalari sinfiylik, partiyaviylik, xudosizlik tamoyillari va davlat mulki ustuvorligiga tayangani, so‘z va vijdon erkinligi turli yo‘llar bilan bo‘g‘ib kelingani, bir yoqlama dunyoqarash zo‘rlik bilan singdirilganni tufayli falsafaning quruq safsata va zerikarli aqidaga aylanib qolgani achchiq haqiqatdir. U davrda totalitar tuzum va yakka partiya manfaatlari ustun qo‘yilani oqibatida falsafa deganda, insonni – inson, xalqni – xalqqa aylantiradigan, uning qadr-qimmati va o‘zligini aks

ettiradigan, asrlar davomida bir butun tizim sifatida shakllanib, rivojlanib kelgan hodisa emas, balki sobiq mafkuraning maddohiga aylantirilgan, uning doirasidagi kichik bir soha tushunilar edi.

Mustabit sho‘rolar davri o‘zbek falsafasi taniqli olim, faylasuf Ibrohim Mo‘minov nomi bilan bog‘liq. Mashhur olim falsafa ilmiga qiziqdi, shu sohada maqola, risolalar yozdi va ilmiy tadqiqot ishlari olib bordi. “Falsafa - bepoyon olam. ...falsafa ilmi hududiy, milliy, mintaqaviy

xususiyatlarga ega bo‘lishi bilan birga, umumjahon mezonlari, qonuniyatlar, tarixiylik alomatlarini ham o‘zida aks ettiradi. Shuning uchun ham Ibrohim Mo‘minov xalqimiz falsafiy tafakkuri qadriyatlarni to‘g‘ri baholash maqsadida qadimgi yunon, Yevropa, ayniqsa. Gegel falsafasini o‘rganmoq zarur, degan qarorga keladi”-deb yozadi domlaning shogirdi, falsafa fanlari doktori, professor N.G‘oyibov. Ibrohim Mo‘minov falsafa ilmini o‘rganish jarayonida bir qator ilmiy tadqiqot ishlarini ham amalga oshirdi.

U 1941 yil o‘zbeklar orasida birinchilardan bo‘lib “Gegel dialektikasining ratsional mag‘zi” mavzusida nomzodlik ilmiy ishini himoya qildi. 1943 yilda O‘zbekiston Fanlar akademiyasi tashkil qilinadi. Uning ta’sis majlisidayoq Ibrohim Mo‘minov akademianing muxbir a’zosi qilib saylanadi. 1946 yil Samarqandda “Mirzo Bedilning falsafiy qarashlari” monografiyasini rus tilida bosilib chiqdi. 1950 yilda “XIX asr oxiri va XX asr boshlarida O‘zbekistonda ijtimoiy-falsafiy fikr taraqqiyoti tarixidan” degan mavzuda doktorlik dissertatsiyasini himoya qiladi. U 50-yillar boshlarida SamDUDA ijtimoiy kafedraga rahbarlik qildi. Bu kafedra Respublikada falsafa yo‘nalishida mutaxassislar tayyorlashda asosiy markazlardan biri bo‘lib qoladi.

Professor N.G‘oyibov o‘zining “Donishmand” risolasida Ibroxim Mo‘minovning xzmatlari to‘g‘risida quyidagicha yakuniy muhim ilmiy xulosalarni chiqaradi:

- Markaziy Osiyoda falsafiy tafakkur tarixi xalqimizning umumiyligi bilan chambarchas bog‘liqlikda dialektik aloqada rivojlanib keldi;
- u jahon falsafasi tarixiy taraqqiyotining ajralmas va mazmunan boy qismidir;
- Markaziy Osiyo falsafasi hozirgi zamon falsafasining asosiy ilmiy-nazariy yo‘nalishlaridan biri hisoblangan inson mavzusiga qadim zamonlardayoq falsafiy muammo sifatida e’tibor qaratdi va rivojlantirdi; inson axloqi, axloqning ijtimoiy mohiyati ayniqsa chuqurroq tahlil etildi;
- ijtimoiy-falsafiy g‘oyalari birmuncha rivojlantirildi; odil jamiyat, odil hukmdor g‘oyalari dadil targ‘ib qilindi;
- Markaziy Osiyo falsafasida bilish jarayoni o‘ziga xos usullarda tahlil etildi; sezgilar vositasida bilish, aqliy bilish, ular o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik masalalariga muhim ahamiyat berildi;
- Markaziy Osiyo falsafasi oddiy dialektikaning rivojlanishiga o‘ziga xos hissa ko‘shdi. Bu

o‘rinda sonlar nazariyasi, inson tanasi hayotiy faoliyatining, shuningdek, moddiy borliqdagi, jumladan, fazodagi barcha predmetlarning xarakatlari qonuniyatlari haqidagi ta’limotlar muhim ahamiyatga egadir;

- panteizm ta’limotining sharqona yo‘nalishlari (vahdati vujud, vahdati mavjud) falsafiy ilmlar taraqqiyotiga o‘z xissasini qo‘shdi;
- Markaziy Osiyo falsafasi taraqqiyotida tasavvuf ta’limoti (tasavvuf falsafasi) g‘oyalari o‘ziga xos ahamiyatga ega;
- Markaziy Osiyo falsafiy fikrlar taraqqiyoti yuqoridagi xususiyatlari bilan jahon falsafasi taraqqiyotiga munosib hissasini qo‘shdi;

Yurtimizda istiqomat qilib kelayotgan turli millat va elat vakillari hamda turli diniy konfessiyalar o‘rtasida bag‘rikenglik tamoyillarini qaror toptirishga alohida e’tibor qaratib kelinmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev tomonidan 2017 yil 7 fevraldagi Farmon asosida e’lon qilingan O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasining beshinchi yo‘nalishi aynan diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlikni ta’minalash masalasiga bag‘ishlangani mamlakat Prezidenti va hukumatining Bosh qomusimiz va xalqaro hujjatlarda belgilangan umuminsoniy tamoyillardan og‘ishmay rioya etayotganidan dalolatdir.

Strategiya tushunchasi grekcha so‘zdan olingan bo‘lib aslida —jang san’ati ma’nosini bildiradi. Bugungi kunga kelib —strategiya keng tushunchaga aylanib, turli siyosiy ijtimoiy sohalarda qo‘llanilmoqda. Jumladan, —Davlat strategiyasi siyosiy terminologiya sifatida bugungi kunda fan nazariyasi va amaliyoti darajasida o‘zining alohida tushuncha va kategoriylariga ega bo‘lib:

- 1.) Uzoqqa mo‘ljallangan rejalashtirish san’ati;
- 2.) Boshqaruv va rahbarlik mahorat san’ati;
- 3.) Siyosiy va ijtimoiy jarayonlarni idora qilish san’ati;
- 4.) Aholini ma’lum maqsadlar sari safarbar etish san’ati;
- 5.) Mavjud resurslardan oqilona foydalanish san’ati;
- 6.) Taqsimlash va samaradorlikni ta’minalash san’ati kabi tushunchalarni qamrab oladi.

Strategiya – bu ta’limotni izlash, ifodalash va rivojlantirish tizimi bo‘lib, u izchillik bilan va to‘liq amalga oshirilganda uzoq muddatli muvaffaqiyatni ta’minalaydi. Strategiya bu – strategik fikrlash, chuqr bilim va intuitsiya asosida muhitni, kelgusi sharoitlarning mavjud prognozlarini tizimli tahlil qilish natijasidir. Ushbu tahlilning yakuniy mahsuli – bu o‘zidan avvalgi proqnoz, vazifa, nuqtai nazar, ustuvorliklar va uzoq muddatli maqsadli vazifalarni rejalashtirish orqali bajarilishini talab qiladi.

Dinlararo bag‘rikenglik g‘oyasi turli diniy e’tiqodga ega bo‘lgan kishilarning bir zamin, bir vatanda, olijanob g‘oya va niyatlar yo‘lida hamkor va hamjihat bo‘lib yashashini

anglatadi. Dunyodagi dinlarning barchasi zaminida ezgu g‘oyalar turadi, ular insonni halollik, tinchlik, yaxshilik va do‘stlik kabi fazilatlar tomon yetaklaydi. Azaldan islom dini o‘zga din vakillari bilan bahamjihatlikka chaqiradi. Alloh taolo Qur’oni Karimda shunday marhamat qiladi: «(Ey, mo‘minlar!) Sizlar ahli kitoblar bilan faqat eng chiroyli uslubda munozara qilingiz, illo ularning orasidagi zulm (tajovuz) qilganlar bundan mustasnodirlar» (Ankabut surasi, 46- oyat). Insoniyat o‘zini va o‘zligini anglash yo‘lida asrlar mobaynida turli muqaddas a’mollarga suyanib kelgan. Odamlarning e’tiqodlari, ular diniy-mifologik ta’limot ko‘rinishida yoki muqaddas kitob shaklida bo‘ladimi, qanday bo‘lmisin, insonni o‘zligini anglashga va o‘zgaga bo‘lgan ijobjiy munosabatlarga da’vat etib kelgan. Ammo hozirgi globallashuv sharoitida din bilan bog‘liq muammolar jahonning turli hudud va mamlakatlarida nozik masalalardan biriga aylandi.

Mamlakitimiz Prezidenti Sh.Mirziyoev 2017 yil 15 iyun kuni Toshkent shahrida “Ijtimoiy barqarorlikni ta’minalash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi” mavzusida anjumanda mazkur masalaga e’tibor qaratib, shunday dedi: “Biz ko‘p joylarda jaholatga qarshi ma’rifat tashabbusi bilan chiqyapmiz. Muqaddas islom dinini niqob qilib boshqa ko‘chalarga kirib ketayotgan johil kimsalar bir narsani tushunmaydi yoki tushunishni istamaydi. Ya’ni, islom faqat nurli hayotga, ilm-ma’rifatga, yaxshilikka undaydi. Hech qachon xunrezlik, qotillik, zo‘ravonlikka chaqirmaydi. Ana shu haqiqatni tan olmasdan, soxta g‘oyalarga aldanib, zararli oqimlarga kirish, terrorchi bo‘lish – bu O‘zbekiston xalqiga mutlaqo to‘g‘ri kelmaydi. Alhamdulilloh, hammamiz musulmonmiz, buning shukronasini qilib, farzandlarimizni ham bunday ne’matning qadriga yetadigan insonlar etib tarbiyalashimiz kerak emasmi?” [2; 58 b.]. Shunday ekan, yoshlarning ma’naviy olami, ma’rifatini oshirish, diniy va dunyoviy bilimlar bilan qurollantirish, bir so‘z bilan aytganda, ularning tarbiyaga mas’ul ekanligini har bir shaxs his etmog‘i lozim. Shuning uchun ham Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning 2019 yil 28 dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida “O‘zbekiston millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik sohasida o‘z an’analariga doimo sodiq bo‘lib, bu yo‘ldan hech

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh assambleyasining yalpi majlisi tomonidan muhim bir hujjat – “Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik” rezolyusiyasi qabul qilindi. Ushbu rezolyusiyani qabul qilish tashabbusi 2017 yil sentabr oyida Bosh assambleyaning 72-sessiyasida O‘zbekiston tomonidan ilgari surilgan edi. Bizning taklifimizni Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a’zo bo‘lgan 193 ta davlat keng qo‘llabquvvatlagani jahon hamjamiyati tomonidan O‘zbekistonning sa’y-harakatlariga berilgan yuksak baho va e’tirof sifatida barchamizga katta mammuniyat va g‘urur-iftixor bag‘ishlaydi”, deya alohida ta’kidladi .

### Nazorat savollari

1. Jadidchilik harakatining ijtimoiy-siyosiy jihatlarini ko‘rsatib bering?
2. Jadidlar falsafiy ijod qiganmi. Agar bilsangiz asoslab bering?

3. Jadiarlarning merosini hozirgi zamon falsafasi o‘rganishini to‘g‘ri deb hisoblaysizmi?
4. Totalitar mafkuraning falsafaga ta’sirini qanday baholaysiz?
5. XX asrda yetishib chiqqan o‘zbek faylasuflarini sanab bering?

#### **4-Mavzu: «Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari» o‘zbek falsafasining zamonaviy konsepsiysi.**

- 1. O‘zbek falsafasining asosiy taraqqiyot yo‘nalishlari.**
- 2. O‘zbekistonning mustaqil demokratik taraqqiyot yo‘li. Milliy tiklanish bosqichi va uning o‘ziga xos xususiyatlari.**
- 3. Mamlakatimizda demokratik islohotlar va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari.**

Falsafiy tafakkurning ijtimoiy-siyosiy asoslari mustahkam bo‘lishi zarurligi taraqqiyot jarayonida ko‘p bor isbotlangan haqiqatdir. Har qanday jamiyat va mamlakat xalqning turli qatlamlari, partiyalar, milliy-etnik birliklarning ijtimoiy ongini o‘zgartira olmasa, o‘zining pirovardmaqsadlarini amalga oshirishi qiyin. Bugungi kunda jahon hamjamiatining teng huquqli a’zosiga aylangan O‘zbekistonda yangi mazmun va shakldagi siyosiy tizim hamda tuzilmalar vujudga keldi. Bularning barchasi yangi mazmundagi falsafiy dunyoqarashni shakllantirishning ijtimoiy-siyosiy asoslarini yaratdi.

Falsafiy yangilanishda ma’naviy asoslar nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bunday jarayon mamlakatda amalga oshayotgan ma’naviy sohadagi o‘zgarishlarning tarkibiy qismidir. Bu borada O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar, xalq ma’naviyatining tozalanishi, asrlar davomida yaratilgan qadriyatlarni tiklash, asrab-avaylash, kelajakka yetkazish bilan bog‘liq sa‘y-harakatlar katta ahamiyatga ega. Bunda, ayniqsa, tarix falsafasi, xalqimizning xotirasi, o‘tmishdagi avlodlar yaratgan boy madaniy merosdan to‘la-to‘kis foydalanish imkoniyati yaratilganini alohida ta’kidlash lozim.

Falsafiy yangilanishning g‘oyaviy omillari ham bor, ya’ni bu jarayon mamlakatimiz taraqqiyotining mafkuraviy tamoyillari bilan uzviy bog‘liqdir. Ma’lumki, mafkura jamiyatdagi ma’naviy muhit qanday ekanini ko‘rsatib turadigan eng asosiy mezonlardan biri bo‘lsa, falsafa uni shakllantiradigan omillar sirasiga kiradi. Prezidentimiz asarlarida ta’kidlangani kabi, mafkura bo‘lmasa, har qanday millat, jamiyat o‘z yo‘lini yo‘qotib qo‘yishi mumkin. Bugungi kunda mamlakatimizda milliy istiqlol g‘oyasini aholi ongi va qalbiga singdirish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayon falsafiy dunyoqarash yangilanishining asosiy yo‘nalishini belgilaydigan omillardan biriga aylanib

bormoqda.

Hozirgi zamonga, uning shiddatli o‘zgarishlariga mos falsafiy dunyoqarashni yanada yangilash zarurati bir qator yo‘nalishlarda namoyon bo‘lmoqda:

1. Avvalo, bu mamlakatimizda demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish jarayoni bilan uzviy bog‘liq. Bunda ana shu yangi jamiyat haqida, bozor munosabatlariiga bosqichma-bosqich o‘tish jarayoni, yangi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning qaror topa borishi, islohotlarning inson manfaatlariga xizmat qilishi, komil insonni voyaga yetkazish davr talabi ekani kabi dasturiy vazifalarning hayotiyligi to‘g‘risidagi g‘oyalarni odamlar dunyoqarashida qaror toptirish, ularning qalbi va ongiga demokratik qadriyatlarni muttasil singdirib borish zarur.

2. Falsafiy ongning yangilanishi mohiyat e’tibori bilan mustaqillikni mustahkamlash, mamlakatimizning xalqaro nufuzi va aloqalarining o‘sib borishi, tinchlik, osoyishtalik, milliy totuvlik, hamjihatlikka xizmat qiluvchi g‘oyalarga tayanadi. Uning hayotiyligi ko‘pmillathi xalqimiz irodasiga, ruhiyatiga, milliy tuyg‘ulari, orzu- intilishlariiga mosligi bilan belgilanadi.

3. Albatta, falsafadagi yangilanish inson, millat va Vatan manfaatlari, milliy qadriyatlrimiz ruhiga mos holda amalga oshmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, yurtimizda kechayotgan islohotlar jarayoni, davlatimizning siyosiyligi, huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma’naviy hayotidagi ijobiy o‘zgarishlar to‘g‘risida xalqimizda to‘g‘ri tasavvur va tushunchalarini muttasil ravishda xosil qilib borish lozimligini ko‘rsatadi.

4. Falsafiy dunyoqarashning yangilanishi taqozo etadigan eng muhim vazifalardan biri huquqiy qadriyatlari, maqsad va g‘oyalarni amalga oshirish yo‘lida xizmat qiladigan tafakkur tarzini shakllantirishdir. Bu qonun ustivorligi va shu sohadagi maqsad va g‘oyalar avvalo inson va butun jamiyat manfaatlarini aks ettirgani bois, ularni ma’naviy hayot tarziningtarkibiy qismiga aylantirish muhim ahamiyatga ega.

Shu o‘rinda qabul qilinayottan qonun va qarorlarning asl mohiyatini, ularda bayon qilingan g‘oya, xulosalarni keng xalq ommasi ongiga yetkazish benihoya muhim va dolzarb ekanini ta’kidlash joiz. Chunki demokratik taraqqiyot, fuqarolik jamiyatni va ma’rifatli, barkamol inson tushunchalari o‘zaro bog‘liqdir. Huquqiy davlatni ham, madaniy bozorni ham, ma’naviy sog‘lom jamiyatni ham ana shunday kishilar yarata oladi. Bunday avlodni voyaga yetkazmay turib, ularning ongi va qalbiga milliy istiqlol g‘oyalarini singdirmay turib, jamiyatdagi yangilanishning asosiy yunalishlarini amalga oshirish to‘g‘risida fikr yuritish nihoyatda qiyin.

Demak, falsafiy dunyoqarashning yangilanishi, bir tomondan, mohiyat e’tiboriga ko‘ra, har bir insondan, uning ongi, tafakkuri takomillashuvidan chetda kechadigan jarayon emas. Ikkinchidan esa, bu - umumjamiyat miqyosidagi ijtimoiy ongning o‘zgarish jarayondir. Shu ma’noda, u ham jamiyatdagi boshqa o‘zgarishlar kabi, avvalo, inson uchun, uning manfaatlarini amalga oshirish uchun bo‘layotgan tub islohotlarning tarkibiy

qismidir. Bu jarayonda o‘tayotgan davrni, uning mazmun-mohiyatini belgilaydigan ulkan o‘zgarishlarni, bu o‘zgarishlarda ishtirok etgan sub’ektlar faoliyatini o‘rganish va bundan xulosalar chiqarish muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega.

O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng iqtisodiy, ijtimoiy siyosiy, mafkuraviy-ma’naviy sohalarda taraqqiyot va yangilanishning o‘ziga xos hamda o‘ziga mos yo‘lini tanladi. Respublikamizning bozor iqtisodiyotiga o‘tish tajribasi, «o‘ziga xos va o‘ziga mos» taraqqiyot yo‘li, istiqlolning dastlabki kunlaridan boshlab milliy an’analaramizga asoslangan yangi davlatchilik nazariyasi, milliy tiklanish g‘oyasi, istiqbolda mo‘ljallangan strategik masalalar, mintaqaviy va xalqaro siyosat, O‘zbekistonning jahon hamjamiyatida tutgan o‘rni va mavqeい kabi dolzarb masalalar ishlab chiqildi. Shuningdek, O‘zbekistonda qurilayotgan huquqiy demokratik davlat xususiyatlari, demokratiya va xalq ruhiyati, demokratik tamoyillar rivoji, madaniyatlar va sivilizatsiyalar sintezi, fuqarolik jamiyat tizimini shakllantirish yo‘llari, milliy mafkura zarurati va uning negizlari, milliy qadriyatlarni tiklash, necha ming yillik tariximizni o‘rganishning konseptual g‘oyalari asoslاب berildi.

Ma’lumki, Islom Abdug‘anievich o‘z rahbarlik faoliyatining mazmuniga aylangan «Bizdan ozod va obod Vatan qolsin!» degan ezgu g‘oyani ilgari surgan va bu shior barchamizning, butun xalqimizning qalbidan chuqur joy olgan edi. Ulug‘ yo‘lboshchi ana shu buyuk vazifani hamma vaqt, har qanday vaziyatda ham sharaf bilan ado etdi, bu yo‘lda beqiyos kuch-g‘ayrati va aql-zakovatini, kerak bo‘lganda hatto aziz jonini ham ayamadi. Ko‘pni ko‘rgan xalqimiz aynan Islom Abdug‘anievich rahbarligida g‘oyat murakkab tarixiy davrda mamlakatimiz mustaqillikka erishganini, milliy davlatchiligidan tiklash va dunyo hamjamiyatidan munosib o‘rin egallah, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini ishlab chiqish va amalga tatbiq etish, hayotning barcha soha va tarmoqlarini isloh qilish borasida ulkan yutuqlarni qo‘lga kiritganini, bularning barchasi erkin va farovon hayotimiz uchun mustahkam poydevor bo‘lib kelayotganini hech qachon unutmaydi<sup>2</sup>.

*Albatta jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichlarida ijtimoiy hodisalarga munosabat xilma-xil tarzda namoyon bo‘ladi. Xususan, mustaqilligimizning birinchi kunidan boshlab, hayotimizning barcha jabhalarida «qadriyatlar», «milliy tiklanish», «milliy ong», «milliy g‘urur», «milliy iftixon» kabi atamalar tez-tez ishlatiladigan bo‘lib goldi. Bu bejiz emas. Zotan, mustaqillik, ayni paytda, milliy tiklanish hamdir. Uni esa mazkur tushunchalarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi.*

Davlat va jamiyat boshqaruvi murakkab jarayon bo‘lib, uni tashkil etish va boshqarish bo‘yicha turli xil modellar, boshqaruv shakllari hamda yo‘llari ishlab chiqilgan. Insoniyat tomonidan ming yillar davomida taraqqiyparvar davlat, —komil jamiyat|| barpo

<sup>2</sup> Мирзиёев Ш.М. Мустақил Ўзбекистон давлатининг асосчиси. // Ислом Каримов - Мустақил Ўзбекистон давлатининг асосчиси. –Т.: Ислом Каримов номидаги республика Хайрия жамоат фонди 2018. -10 б.

etish g‘oyasi ilgari surilgan. Shu asosda o‘tgan asrdan boshlab jahon amaliyotida huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini tashkil etish bo‘yicha amaliyot bir necha davlatlar tajribasida qo‘llanilib, hayotda o‘z samarasini berdi.

Bugungi kunda esa o‘z suverenitetiga ega bo‘lgan ko‘pgina mamlakatlar uchun bunday yo‘l eng maqbul maqsadga aylandi. Dunyo xalqlari yangi davr tarixini kuzatsak, ularning ko‘pchiligi o‘z milliy mustaqilligi uchun kurashni o‘z ona tiliga davlat tili maqomini berish uchun kurashishdan boshlaganligini ko‘ramiz. Hindiston, Pokiston, Bangladesh kabi Angliyaning, Afrikadagi Fransiyaning, Amerikadagi Ispaniyaning mustamlakalari bo‘lgan davlatlarda ona tiliga davlat tili maqomi berish uchun kurashlar yillar davom etgan. Ammo, afsuski, ularning barchasi ham hali hanuz o‘z niyatiga erishgan emas. Shuning uchun bu qonunni mustaqilligimiz yo‘lidagi dastlabki qadamlardan biri sifatida, ulkan siyosiy, tarixiy voqeа sifatida e’tirof etishimiz, uning qadriga yetishimiz shart. O‘tgan yillarga nazar tashlasak, milliy tilimizga munosabat va e’tiborning qanchalik o‘zgarganligiga guvoh bo‘lamiz. *Hech ikkilanmay aytish mumkinki, o‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi xalqimizning istiqlolga erishish, shu yurtda yashayotgan, uning rivoji, istiqboli uchun jon kuyidirayotgan har bir insonning orzu-umidlarini ro‘yobga chiqarish yo‘lidagi muhim qadamlardan biri bo‘ldi. Zero, o‘zlikni anglash, milliy iftixon hissining shakllanishi millat tilining mustaqilligi, erkinligi bilan bog‘liqligi hech kimga sir emas.*

Milliy tiklanish — u yoki bu millat hayotida sodir etiladigan, zo‘ravonlik yo‘li bilan uning avlod-ajdodlari tomonidan yaratilgan meros, urf-odatlar, an’analar, qadriyatlardan mahrum etilgan, tarixiy xotirasi toptalgan, milliy o‘zlikni anglashi cheklangan, manfaatlari, maqsadlari, paymol etilgan, tarixiy taraqqiyotning ma’lum bosqichiga kelib esa o‘z mustaqbilligini qo‘lga kiritish natajasida milliy rivojlanish borasida ana shu boy berilgan imkoniyatlardan foydalanish, yaratilgan barcha moddiy va ma’naviy boyliklarni milliy rivojlantirishga yo‘naltirishga qaratilagni umummilliyligini faoliyatdir. Milliy tiklanishning asosiy yo‘nalishi tarixiy taraqqiyotning ma’lum bosqichida u yoki bu millat tomonidan milliy taraqqiyot borasida boy berilgan imkoniyatlarini mustaqillikni qo‘lga kiritish sharofati bilan yana milliy rivojlanishning asosiy manbaiga aylantirish borasidagi umummilliyligini va milliy o‘zlikni anglash jarayoni faoliyati bilan bog‘liqdir.

Siyosatshunos olimlar mustaqillik davri rivojlanish bosqichlarini shartli ravishda kompensatsiya, adaptatsiya, integratsiya va innovatsiya davrlari sifatida tahlil qilishgan. Jumladan, dastlabki, **kompensatsiya va adaptatsiya** davri (1991-2000y.) – ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasini amalga oshirishga qaratilgan davr bo‘lib, to‘ldirish, ta’minalash, qoplash, moslashish, muvofiqlashish, ko‘nikma hosil qilish ma’nolarida qo‘llaniladi. Bu davrdagi islohotlarning asosiy maqsadi sobiq ittifoq parchalanishi oqibatida markazlashgan ma’muri bo‘yruqbozlik boshqaruviga, kommunistik monopol zug‘umga aylangan mafkuraga xotima yasalishi natijasida mamlakatda har tomonlama

yuzaga kelgan bo‘shliqni to‘ldirishdan iborat edi. Bu bosqichlar ikki davriy jarayonlar kesimida kuzatiladi. Birinchisi, bu milliy davlatchilik asoslarining joriy etilishi, singdirilishi, takomillashib hayotga tadbiq etilish jarayonlari – **kompensatsiya** davrini o‘z ichiga olsa, ikkinchi davriy jarayon davlat boshqaruv mexanizmlari belgilangan islohotlarni amalga oshirish imkoniyati va samardorligini amalda ro‘yobga chiqarishi, ayni paytda, fuqarolar ongida yangi qadriyatlarning qaror topishi, mustaqillik g‘oyalarining faol ehtiyojga aylanishi kabi o‘zgarish va moslashuvlar jarayoni – **adaptatsiya** davri hisoblanadi.

**Integratsiya** davri (2001-2007). — Integratsiya atamasi birlashish, qo‘shilish, singish, umumjahon taraqqiyoti jarayonlariga muvofiq qadam tashlash kabi ma’nolarni qamrab oladi. Jumladan, bu tushuncha davr chaqiriqlariga munosib javob berish, ilm-fan va texnologiya yangiliklarini amaliy ishlab chiqarishga tatbiq etish orqali ilg‘or mamlakatlar safidan joy olishga erishish mazmunida qo‘llaniladi. Ayni paytda rivojlangan davlatlar tajribasini amalda tatbiq etish milliy iqtisodiyotning umumjahon tizimiga kirib borishiga xizmat qildi.

**Innovatsiya davri** mamlakatimizda 2007 yildan hozirgi kungacha davom etib kelayotgan uchinchi bosqich hisoblanadi. Ushbu davrning o‘ziga xos xususiyatlari O‘zbekistonning demokratik islohotlar yo‘lida yangi taraqqiy etgan industrial rivojlanish bosqichiga qadam qo‘yishi bilan belgilanadi. Bu davr jahon tajribalari hamda sinovlaridan o‘tgan, bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik davlat va jamiyat boshqaruvining eng ilg‘or tamoyillarini tatbiq etishga qaratilgan yangi bosqichni boshlab berdi.

### Nazorat savollari

1. O‘zbek falsafasining asosiy taraqqiyot yo‘nalishlarini ko‘rsatib bering?.
2. O‘zbekistonning mustaqil demokratik taraqqiyot yo‘lida yangi falsafiy tafakkurni rivojlanishini nimalarda ko‘rinadi?
3. Milliy tiklanish bosqichi va uning o‘ziga xos xususiyatlari nimada?

Mamlakatimizda demokratik islohotlar va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlarini sanab bering?.

## IV. AMALIY MASHG'ULOTLAR MATERIALLARI (jami 10 soat)

Amaliy mashg'ulotlar ijtimoiy fan yo'nalishi bo'lganligi sababli seminar tarzida o'tkaziladi hamda quyida beriladigan savollar va ularning javoblarini zamonaviy pedagogik texnologiyalarini qo'llagan holda bajarishni taqazo etadi.

### 1-amaliy mashg'ulot

Insoniyat yaratgan ma'naviy boyliklar orasida falsafa ilmida to'plangan xikmatlar xazinasi, atoqli faylasuflar merosi, ularning asarlari muhim o'rinni tutadi. Har bir davrning donishmandlari o'z yurti va xalqining tafakkuri, ruhiyati hamda orzu intilishlarini falsafiy ta'limotlarida ifoda etganlar, jamiyat farovonligi va millat ravnaqi uchun xizmat qiladigan g'oyalarni o'rtaga tashlaganlar. Xalqni buyuk maqsadlar sari yetaklovchi g'oyalarning muayyan davr mafkurasiga aylanishida falsafiy bilimlar katta ahamiyat kasb etadi. Shu ma'noda, millatimizning daholari hisoblangan mashhur allomalarining hayotbaxsh g'oyalarini va o'lmas asarlarini o'rganish, targ'ib-tashviq qilish tom ma'noda milliy o'zlikni anglashga beqiyos xizmat qiladi.

Umuman, biz yashayotgan dunyo so'ngi yillarda nihoyatda o'zgarib ketdi. Xususan, Vatanimiz tarixida XX asrning 90-yillarida olamshumul hodisalar yuz berdi. Mamlakatimiz mustaqillikka erishib, o'ziga xos taraqqiyot yo'lini tanladi, rivojlanishning «o'zbek modeli»ni amalga oshirishga kirishdi. Xalqimizning huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati barpo etish zarurati dunyoqarashni tubdan o'zgartirish, sho'rolar davrida hukm surgan aqidalardan voz kechish, milliy istiqlol g'oyasini xalqimiz ongi va qalbiga singdirish, shu asosda milliy ma'naviyatni yuksaltirishni taqozo etmoqda. Bunda ijtimoiy fanlar, xususan, falsafiy fanlar rivoji katta ahamiyat kasb etadi. Zero, Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek, «Ko'p asrlik tariximiz shuni ko'rsatadiki, inson dunyoqarashining shakllanishida ma'rifatning, xususan, ijtimoiy fanlarning o'mi beqiyos. Bu jamiyatshunoslik bo'ladimi, tarix, falsafa, siyosatshunoslik bo'ladimi, psixologiya yoki iqtisod bo'ladimi - ularning barchasi odamning intellektual kamolotga erishuvida katta ta'sir kuchiga ega»<sup>1</sup>.

Alovida ta'kidlash lozimki, Yevropa va sobiq ittifoqning mintaqamizdan boshqa hududlarida yashaydigan mutaxassislarning falsafa tarixiga bag'ishlangan kitob, risolalarida gap, asosan, G'arb mutafakkir va olimlari merosi, ularning gnoseologiyaga qo'shgan hissasi to'g'risida boradi. Bunda Suqrot, Platon, Aristotel, I.Kant, I.Gegel, F.Nisshe, 3.Freyd va boshqalarning nomlari tilga olinadi. ko'plab oqim va ta'limotlar ushbu olimlariing nomi, ta'limoti hamda asarlari bilan bog'liq holda shakllangan. Ularning falsafaga qo'shgan hissalarini xilma-xil, ammo bu sohada ahamiyatga molik xizmatlari va falsafani boyitgan fikrmulohazalari kup. Biz ularning fanga qo'shgan hissalarini inkor etmoqchi yoki

<sup>1</sup> Қаранг. Ислом Каримов. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт-пировард мақсадимиз. 8-жилд. Т.: «Ўзбекистон», 2000. 504-бет.

kamsitmoqchi emasmiz.

Ammo O‘zbekistondagi ilm-fan, jumladan falsafa rivoji ham o‘zining uzoq va shonli tarixiga ega, uning an’analari olis o‘tmish, asrlar qa’ridan boshlanadi. O‘rta Osiyo mintaqasida bu masalaga oid ilmiy qarashlar takomili yetarli darajada o‘rganilmagan.

Yurtimizda yashagan allomalar ijodida falsafa masalalari qay tariqa yoritilganligini tahlil qilamiz. Asosiy maqsad - tarixiy tadqiqot emas, balki masalani falsafiy tamoyillar bilan bog‘liq tarzda qo‘yilishi va tahlil qilinishidir. Bu boradagi intilish «Osiyosentrizm» tarzida emas, balki avlod va ajdodlarimiz yaratgan falsafiy merosni insoniyat tafakkurining tarkibiy qismi sifatida xolisona o‘rganishga harakat qilishdan iboratdir.

Hozirgi davrda o‘zining milliy falsafasi va taraqqiyot modelini uyg‘unlashtirish, shu orqali rivojlanishining yangi bochqichga ko‘tarilishiga harakat qilayotgan xalqlar va davlatlar ko‘p. Bu borada muayyan tajriba ham to‘plangan. Bugungi kunda xitoy falsafasi, hind falsafasi, yunon falsafasi, ingliz falsafasi, fransuz falsafasi yoki nemis falsafasi atamalariga o‘rganib qolganmiz. Bu falsafa maktablarining har biri insoniyat sivilizatsiyasi haqida o‘ziga xos yondoshuvlari qatori o‘z xalqining betakror qiyofasi, milliy an’analari, mentaliteti va ma’naviyatini aks ettirishi bilan ana shunday e’tirofga sazovor bo‘lgan.

Mustaqillikka erishganimizdan keyin ana shu boy falsafiy merosimiz “O‘zbek falsafasi” degan nomi bilan qayta tiklanib, yangi ma’no-mazmun kasb etdi va hozirgi takomil bosqichiga qadam qo‘ydi. Falsafaning asliyatiga qaytishi, sobiq ittifoqdan qolgan oqibatlarning asta-sekin bartaraf etilishi, inkor va yangilanish, o‘zgarish va rivojlanish tamoyillari bilan bog‘liq bu jarayon mamlakatimizda mustaqillik yillarida amalga oshirilayotgan islohotlarning tarkibiy qismiga aylandi.

O‘zbek falsafasi tushunchasi xalqimizning falsafiy tafakkuri. Ongi va dunyoqarashining rivojlanish bosqichlari, tushuncha va kategoriyalari, ma’naviy tamoyillari va o‘ziga xos xussiyatlarini ifodalaydi, qadimgi zamonlardan shakllanib bugungi kungacha yetib kelgan ilmiy-falsafiy meros, u bilan bog‘liq jarayonlar, shu sohadagi g‘oyalar, nazariya va ta’limotlar majmuni anglatadi. Bundan tashqari, u mustaqillikka erishgan xalqimizning taraqqiyot yo‘li va rivojlanish tamoyillari, demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonining falsafiy, ma’naviy omillari, amalga oshirilayotgan bunyodkor ishlari ta’sirida aholining ongi va tafakkurida ro‘y berayotgan o‘zgarishlarni ham o‘zida aks ettiradi.

Markaziy Osiyoda vujudga kelgan qadimgi falsafiy ta’limotlar, ular ilgari surgan g‘oyalar bugungi kunda ham muhim ahamiyatga ega. Sanab o‘tilgan qadimgi falsafiy ta’limotlar ya’ni zardushtiylik, uning bosh kitobi – “Avesto”, Moniy ta’limoti “Moniy yozuvi” , mazdakiylik harakati jamiyatdaadolat, erkinlik, teng huquqlilik tamoyillarini qaror toptirishga da’vat etgan. Shu ma’noda, vatanimizning o‘sha davrda shakllangan va rivojlangan boy madaniyati, milliy ma’naviyatimiz, falsafamiz jahon falsafiy tafakkuri rivojiga katta ta’sir ko‘rsatgan.

Yana shuni ta'kidlash kerakki, Zardusht dini va keyinchalik uning asosida paydo bo'lgan Moniy dini ko'pxudolikdan yakkaxudolikka o'tgan davrini belgilab bergan dinlar edi. Ya'ni bizda islomgacha yakkaxudolik haqidagi aqidalar shakllanib bo'lgan edi. "Avesto" yana shunga guvoxlik beradiki, unda insoniyatning olam tuzilishi, tabiat va uning ne'matlaridan foydalanish yo'riqlari, inson axloqi, jamiyat tizimi, insonning orzu-armonlari, o'zini va olamni bilish qobiliyati bir butun xolda shakllana boshladi. Odamlarning muqaddaslik, rux, jon, farishta, tana, tuproq, suv, olov haqidagi tushunchalari ifodalandi. Ya'ni mifologiyadan dinga o'tish va dinlar asosida bir tizimli falsafiy dunyoqarash, amaliyotda esa shu dunyoqarash asosida qonun-qoidalar ishlab chiqish yo'lga qo'yildi. Shu bois ham zardushtiylik dini nafaqat Markaziy Osiyo xalqlari tarixida, balki umuminsoniyat tarixida tafakkuriy – e'tiqodiy va amaliy-ijtimoiy yuksalish edi. Ko'pgina olimlar fikriga ko'ra, Zardusht- buyuk mutafakkir inson, zabardast shoir bo'lgan. Uning qarashlari islom dini kirib kelgunga qadar o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lgan.

Yana shuni ta'kidlash kerakki. yurtimiz xalqlari sivilizatsiyasi, ongi va tafakkuri, milliy qadriyatlari arab dunyosi, madaniyati rivojiga ham katta ta'sir ko'rsatgani shubhasiz. Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Ulug'bek kabi mutafakkir olimlar, Al-Buxoriy, At-Termiziy, Najmuddin Kubro, Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband kabi ilohiyot ilmining zabardast allomalari, Lutfiy, Yusuf Xos Xojib, Navoiy, Bobur, Bedil, Mashrab kabi ulug' zotlarning' kamolotida nafaqat islomiy tafakkur, balki sivilizatsiyamiz madaniyati va qadriyatlari ta'siri beqiyosdir. Ularning islom falsafasiga, uni zamona zayllari orasidan o'tishi jarayoniga ta'siri to'g'risida maxsus tadqiqotlar olib borish mumkin. Zamonaviy islom ilohiyotchklari Al-Buxoriy asarlarini «Qur'on»dan keyingi manba sifatida tan olgani, At-Termiziy, Zamashshariy, Yassaviy, Naqi band va boshqa allomalarimiz merosini qadrashk bejiz emas. Hozirgi davrda falsafa tarixi bo'yicha ba'zi mutaxassislar suhbat va bahslarda Al-Buxoriy, Termiziy, Kubro va boshqalar ijodida sof falsafiy mavzular, masalan, ontologiya va gnoseologiya masalalari qarab chiqilmagan, degan fikrni bildiradilar. Bu fikrga qo'shilib bo'lmaydi. Balki, falsafaning g'arbcha talqinidagi ontolog'iya va gnoseologiya masalalari bu mutafakkirlar merosida alohida, maxsus mavzu tarzida qarab chiqilmagandir. Ammo, mazkur masalada xam xalqimizniig' «Izlagan topadi» degan hikmatli so'ziga amal qilish lozim. Bu borada Ibrohim Mo'minovning Bedil ijodiga bag'ishlang'an asari yoki Omonulla Fayzullaevning Al-Xorazmiy falsafiy merosi haqidagi kitobi va Al-Farg'oniy to'g'risidagi maqolalari ibrat bo'lishi mumkin. Qolavsrsa, yuqorida nomlari tilga oling'an allomalar o'z davrida keng tarqalgan tabiiy-ilmiy bilimlardan xabardor bo'lganlar, ularni o'rganganlar, ushbu bilimlarga tayanib, o'zlarining ijtimoiy-falsafiy qarashlarini bayon qilganlar. Ular o'sha davrning ontologik va gnoseologik tushuncha hamda tamoyillarini muayyan haqiqatlar sifatida qabul qilganlar va o'z asarlarida qo'llaganlar. Arab xalifaligi VIII-IX asrda Osiyo, Afrika va Yevropaning bir qismini

egallagan ulkan imperiyaga aylangan edi. Yagona muomala tili arab tili edi. Barcha madrasalarda shu tilda ta’lim olib borilardi, ilm-fan ham arab tilida yaratilardi. Bu xol turli o‘lkalar, xalqlardan yetishib chiqqan olimlar, ziyoliylarning o‘zaro muloqot olib borishi, tahsil olishi, fan yutuqlaridan o‘zaro bahramand bo‘lishlari uchun qulay sharoitni vujudga keltirardi.

Ilm-fan, ma’naviyatga e’tibor G‘aznaviyalar, Qoraxoniylar hukmronligi davrlarida ham davom etgan. Ayniqsa Xorazmda shoh Ma’mun davrida barpo etilgan “Dorul ulum”ning tarixiy ahamiyati beqiyosdir. Dunyo ilm-fan tarixida u “Xorazm Ma’mun Akademiyasi” nomi bilan mashhur. Abu Rayhon Beruniy, Muso al-Xorazmiy, Ibn Sino kabi ko‘plab allomalar ana shu ilmiy muhitning natijasida tarbiyalangan isbot talab qilmaydi.

Muayyan bir mintaqada ma’lum bir davr ichida tushkunlikda bo‘lib, so‘ngra yuksaklikka erishilgan holat g‘arb tillarida odatda renessans, bizda esa uyg‘onish davri deyiladi. Yurtimiz tarixida IX – X asrlar buyuk, qudratli **Uyg‘onish davri** edi. Demak, insoniyat tarixidagi ulkan uyg‘onish davrlaridan biri bizning mamlakatimiz, mintaqamizda ro‘y bergen va bu yuksalish ajdodlarimiz orqali butun bashariyatga tegishlidir.

Ushbu davr falsafasi falsafiy tafakkuri mamlakatimizda islom dinining tarqalishi va qadimgi yunon falsafiy merosini o‘rganishga qiziqishning ortishi bilan uzviy bog‘liqdir. Bu davr farbda falsafa, fan va san’at tushkunlikka yuz tutgan bir vaqtda Sharqda qadimgi Yunon ilg‘or falsafiy, tabiiy-ilmiy an'analar va azaliy mahalliy an'analar negizida ma’naviy hayot yuksak rivojlangan davrdir. Bu Amudaryo va Sirdaryo bo‘ylarida yashagan xalqimizning dahosi eng yuksak darajaga ko‘tarilgan, uning atoqli namoyandalari jahon madaniyati sahifalariga o‘zlarining o‘chmas nomlarini muhrrlab ketgan davr falsafasidir.

### **Berilgan matndan quyidagi savollarga javob bering.**

1. O‘zbek falsafasini predmetini ating?
2. O‘zbek falsafasini nechta takomil bosqichi mavjud?
3. Milliy davlatchilik va falsafiy tafakkurning o‘zaro nisbati qanday?
4. Dunyoqarashning asosiy tarixiy shakllarini ta’riflang.
5. Nima uchun falsafa tarixida fikrlar rang-barangligi me’yor hisoblanadi?
6. Ayrim insonning yaxlit falsafiy dunyoqarashi falsafiy plyuralizm asosida qanday shakllanadi?
7. Falsafa tarixida «falsafaning asosiy masalasi»ga ta’rif berish qanday amalgalashuvda oshirilgan?
8. Hozirgi dunyoda falsafa qanday vazifalarni hal qilmoqda?
10. Mustaqillik davridagi “Falsafaning siymosi”ni ko‘rsating

### **Amaliy mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi:**

1. Tinglovchi berilgan har bir savol bo‘yicha o‘z fikrini bayon qiladi;
2. Qo‘yilgan savolni qanday qilib qulay o‘qitish metodlari haqida taklif beradi;
3. Berilgan taklif bo‘yicha bir nechta misollar ko‘rsatadi;
4. Taklif qilinayotgan zamonaviy ta’lim metodining samaradorligini isbotlaydi.

## **2-amaliy mashg‘ulot.**

Hozirgi kunda jahon taraqqiyotida shakllangan yangi umumsayyoraviy tartib, tamaddunning mazmun-mohiyati, davlatlar va kishilar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarining kengayishi va murakkablashishi, dunyo miqyosida axborot makoni, kapital, tovar hamda ishchi kuchi bozorida tamoman yangi vaziyat vujudga kelishi, atrof-muhitga texnogen ta’sirning kuchayishi, axborotmafkuraviy va diniy-ekstremistik xurujlar xavfining ortib borishi, jamiyat hayotining barcha sohalari, iqtisodiyot, siyosat, mafkura, madaniyat, hatto shaxsiy turmush tarzini ham globallashuv jarayoni bilan bog‘lashmoqda. Yuqorida ta’kidlanganidek globallashuv jarayonlari jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojining barcha jabhalarini qamrab olib, uning ko‘rinishlari inson hayotining turli sohalariga o‘z ta’sirini ko‘rsatib kelmoqda. Bunday ta’sirni, ya’ni globallashuv sohalari va uning ko‘rinishlarini Eduard Azroyans umumiy tarzda quyidagicha ifodalaydi<sup>3</sup>:

Globallashuv jarayonlari jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy sohalarining barcha jabhalariga o‘z ta’sirini o‘tkazib, ularning o‘zgarishi va rivojlanishiga olib kelayotganligini ko‘rsatmoqda, jumladan:

- texnologiya sohasida dunyo miqyosida mahsulotlar ishlab chiqarishni monopollashtiruvchi moliyaviy jarayonlarni keltirib chiqarayotganligi, xalqaro maydonda moliyaviy kompyuter tarmog‘i orqali dunyoning bir burchagidan boshqasiga istalgan miqdorda mablag‘ning o‘tkazilishi, xalqaro maydonda raqobatni rivojlantiruvchi metatexnologiyalarning rivojlanishi (kosmik yo‘ldosh, kompyuter, uyali telefon, internet va h.k.) bilan belgilanishi;

- ekologiya sohasida, iqtisodiyotning rivoji uchun yer resurslari (energetik va xom ashyo zahiralari)dan foydalanish, buning evaziga insoniyat hayotiga xavf tug‘dirayotgan tabiat va atrof-muhit holatining keskin yomonlashuvi, biosferaga texnogen ta’sirlarning kuchayishi, jonivor va o‘simlik turlarining yo‘qolib ketishi;

- iqtisodiyot sohasida, dunyo miqyosida transmilliy korporatsiyalarning shakllanishi, iqtisodiyotning mintaqaviylashuvi, jahon miqyosida savdo va xizmatlarning jadallahuvi;

- madaniy sohada, ommaviy madaniyatning rivojlanishi, ayniqsa, musiqa, kino, teatr, shou-ko‘rsatuvalar, kiyinish, ommaviy-axborot vositalari faoliyatlarining bir xillashuvi, turli xalqlar madaniyatining o‘zaro ta’siri, bir-birini boyitishi tufayli madaniyatlararo aloqalarning mustahkamlanishi va yangi zamonaviy an’analarning shakllanishi va h.k.lar

Bugungi kunda falsafiy tafakkurning yangilanishi har bir jamiyat a’zosining ijtimoiy qiyoysi, ruhiy dunyosi, maqsad va ehtiyojlarining o‘zgarishi barobarida jamiyat tafakkurining o‘zgarishida namoyon bo‘lmoqda. Insonning falsafiy tafakkur tarzi va yo‘nalishiga ta’sir ko‘rsatadigan, g‘oyaviy-nazariy rol o‘ynaydigan tasavvurlar mavjudki,

<sup>3</sup> Азроянц Э. Глобализация: катастрофа или путь к развитию. –М.: Новый век, 2002. –C.316

ular metodologik tamoyillarda mujassamlashgan. Darhaqiqat, falsafa turli davrlarda dunyoning turli mamlakatlarida to‘plangan bilimlarni, tajribalarning yakunlarini umumlashtiradi, yaqinlashtiradi va birlashtiradi. Shu asosda, fanlarning yaqinlashuvi, muammolarning mushtaraklashuvi insoniyat ilmiy va amaliy faoliyatining kengayishi uchun yangi imkoniyatlarni yuzaga keltiradi. Inson bu tafakkur orqali o‘z mohiyati, jamiyat, tabiat haqida tizimli bilimlar ko‘nikmasini hosil qilish bilan cheklanmay, ular asosida ilmiy tafakkur rivoji, amaliy faoliyat uchun muhim bo‘lgan umumiy xulosalar chiqarishga ham intiladi. Natijada fan uchun yangi kashfiyotlar dunyo yuzini ko‘radi. Bu esa fanning takrorlanmas yutug‘idir. Sir emaski, hozirgi davrda falsafa faniga bo‘lgan qarash keskin o‘zgarib bormoqda. Yoshlarning mafkuraviy immunitetini shakllantirish, ularning dunyoqarashini tarbiyalash va dunyoga munosabatini takomillashtirib borish bugungi kunning dolzarb masalalari qatoriga kiradi. Chunki yosh avlod ertangi kunimiz davomchilaridir.

Shu ma’noda, yoshlarda ijtimoiy faollik pozitsiyasini shakllantirishda falsafa va uning roli hamda ahamiyati xususida to‘xtalib o‘tar ekanmiz, uning quyidagi jihatlari ahamiyatga molik:

birinchidan, falsafiy bilimlar bilan oziqlangan yoshlarda falsafiy dunyoqarash, ijtimoiy faollik pozitsiyasi shakllanadi, ularda olamga, voqeа- hodisalarga, atrofini o‘rab turgan jamiyat a’zolariga bo‘lgan ongli munosabat shakllanadi;

ikkinchidan, yoshlarda falsafiy bilimlar natijasida har qanday muammoli vaziyatlarda ham o‘zini o‘zi boshqara olish qobiliyati rivojlanib, o‘sib boradi;

uchinchidan, falsafa o‘zining yondash, ya’ni uning tarmoqlari bilan birgalikda yoshlarda axloqiy sifatlarni “Etika” fani orqali, go‘zallik, nafosat, nafislik singari tushunchalarni “Estetika” fani orqali, jamiyat, inson, ijtimoiy taraqqiyot va uning qonuniyatlarini ijtimoiy falsafa orqali tushuntiradi, unib-o‘sib kelayotgan barkamol yoshlar ongida universal tabiatga ega bo‘lgan dunyoqarash rivojlanishida birlamchi ahamiyat kasb etadi;

to‘rtinchidan, falsafa umuminsoniy qadriyatlar shakllanishida ham o‘z hissasini qo‘sha oladi. Demak, har qanday muammo-masalani falsafiy tahlil qilishda, shuningdek, bu boradagi ilmiy tadqiqot ishlarini baholash va ularga qo‘yiladigan talablarni belgilashda yuqoridagilarga alohida e’tibor qaratish zarur. Bundan tashqari, falsafaning quyidagi vazifalari ham mayjud bo‘lib, u nafaqat yoshlar, balki butun kishilik jamiyatiga ham taalluqli: u kishilarda olam haqida bir butun dunyoqarashni shakllantirishga qaratilgan.

Falsafa metodologik vazifani ham ado etadi, u barcha fan vakillarini ilmiy bilishning asosiy shakllari, usuli va tamoyillari bilan quollantiradi. Shuningdek, falsafa gnoseologik, aksilogik, gumanistik tarbiyaviy vazifalarni bajaradi. Shu bilan birga, u shaxsda jamiyat, insoniyat oldidagi ijtimoiy mas’uliyat hissini uyg‘otadi. Falsafaning aynan mana shu vazifasi milliy g‘oyamizning – ozod va obod Vatan, erkin va farovon turmush tarzini barpo

etish singari bosh g‘oyasini hayotga tadbiq etishimizda katta xizmat ko‘rsatadi. Chunki xalq farovonligi, yurt tinchligi, vatan taraqqiyoti yo‘lida ildam harakat qilishi kerak bo‘lgan har bir komil insonning tarbiyasida aynan ijtimoiy mas’uliyat hissi jamiyat taraqqiyotini mustahkamlashda, uning rivojlanish qonuniyatlarini to‘g‘ri belgilab olishimizda dasturulamal bo‘lib xizmat qiladi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev ta’kidlaganidek, “Buning uchun o‘zini jamiyatimiz, yoshlarmiz ma’naviyati, g‘oyaviy-mafkuraviy tarbiyasi uchun mas’ul deb bilgan insonlar – bu mahalla yoki diniy tashkilotlar bo‘ladimi, huquqtartibot idoralari xodimlari yoki katta ta’sir kuchiga ega ijodkor ziyorilar bo‘ladimi – ularning barchasi, ayniqsa, faol bo‘lishlari lozim”.

Xulosa qilib aytganda, yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishda, avvalo, ko‘plab islohotlar amalga oshirilayotganligini inobatga oladigan bo‘lsak, bu borada hali o‘z yechimini kutayotgan masalalar ham mavjud. O‘z o‘rnida ushbu masalalarni hal etishda buyuk ajdodlarimizdan meros bo‘lib qolgan nodir qo‘lyozmalarda yozilgan ilmiy-falsafiy meroslardan to‘g‘ri va samarali foydalanish maqsadga muvofiq. Zero, ertangi porloq kelajagimizni barpo etishda salohiyatli yoshlarni tarbiyalash dolzarb ahamiyat kasb etuvchi doimiy masalaga aylanmog‘i darkor.

Globallashuv jarayoni eng ilg‘or, yangi texnologiyalar asosida ishlab chiqarishni texnik qayta jihozlash, tezkor zamonaviy kommunikatsiya va aloqa tizimlarining rivojlanishi, ilmiy, texnik va boshqa, odamlar hayotfaoliyati uchun zarur bo‘lgan axborotni jamlash va taqsimlash, misli ko‘rilmagan mehnat unumdarligini ta’minlash uchun qulay sharoit yaratib, bu borada cheklanmagan imkoniyatlarga yo‘l ochmoqda. Bu esa o‘z navbatida turli mamlakatlarning o‘zaro yaqinlashuviga, jahon ijtimoiy hayoti tizimiga integratsiyalashuvi jarayonlarini faollashtirishga xizmat qilmoqda. Biroq globallashuv kishilik tamadduni taraqqiysining tabiiy mevasi ekanligi va ularning ijobiy jihatlarini inkor etmagan holda hozirgi dunyoda bir qator ixtilof va ziddiyatlarni keltirib chiqarayotgan jihatlarini ham e’tibordan qochirib bo‘lmaydi. Bu haqda fikr yuritganda, avvalo, madaniyat va uning bosh tomirini tashkil etgan ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni asrab-avaylash dolzarb ahamiyat kasb etayotganini ta’kidlash lozim. Chunki bugungi kunda ular har qanday mamlakat, jumladan, O‘zbekiston uchun olg‘a harakat qilishning samarali sharti, jamiyat ma’naviy-axloqiy sog‘lomligining kafolati, kuchli davlat sifatida jahon hamjamiyatida munosib o‘rin egallahda mustahkam tayanch bo‘lib xizmat qiladi.

Harakatlar strategiyasining “Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minlash, chuqr o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish”, deb nomlangan beshinchi ustuvor yo‘nalishiga munosabat bildirar ekan, falsafa fanlari doktori, professor I.Saifnazarov inson e’tiqodini shakllantiruvchi uch omilini ko‘rsatib o‘tadi:

- inson hayotining maqsadi va mazmunini anglatadigan, hayotiy dunyoqarashini belgilaydigan, xalqimizning buyuk va qadimiy merosida ifodalangan gumanitar bilimlar;

- shaxsning intellektual salohiyatini yuksaltiradigan va chuqurlashtiradigan, ta’lim jarayonlarini baholashning eng xolis yo’llarini, tamoyillarini, usullarini shakllantiradigan ilmiy-nazariy, ijtimoiy-falsafiy bilimlar;

- o’zga xalqlar hayoti, madaniyati, ma’naviyati, dunyoqarashini o’rgatadigan, uni o’zi mansub milliy madaniyat bilan taqqoslab, har birining munosib o’rnini anglashga imkon beradigan hozirgi zamon ilg‘or ijtimoiy bilimlar.

### **Berilgan matndan quyidagi savollarga javob bering.**

1. Globallashuv jarayoni to‘g‘risida qanday zamonaviy yondashuvlar mavjud?
2. Yangicha tafakkur shakllanishida falsafaning o‘rnini qanday baholaysiz?
3. Madaniyatlararo muloqot-globalashuv jarayonining muhim shartimi?

### **Amaliy mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi:**

5. Tinglovchi berilgan har bir savol bo‘yicha o‘z fikrini bayon qiladi;
6. Qo‘yilgan savolni qanday qilib qulay o‘qitish metodlari haqida taklif beradi;
7. Berilgan taklif bo‘yicha bir nechta misollar ko‘rsatadi;
8. Taklif qilinayotgan zamonaviy ta’lim metodining samaradorligini isbotlaydi.

### **3-amaliy mashg‘ulot**

Har qanday falsafiy tadqiqot muammo doirasini va ilmiy kategoriyalarni, ob’ektning ichki va tashqi funksional xususiyatlarini tizimli belgilarini aniqlab olishdan boshlanadi. Mazkur xususiyatlar va belgilarni aniqlab olmaslik eklektizmga, ob’ekt doirasini behad kengayib ketishiga olib keladi. X.G.Gadamer aytganidek, tadqiqotga oid tushunchalarni aniqlash ob’ektning “ma’naviy evolyusiyadagi o‘rni qanchalik chuqur” ekanini bilishga yordam beradi. Bizning tadqiqotimiz uchun shunday tushunchalar, kategoriyalar “jadid”, “jadidchilik”, “ma’rifat”, “ma’rifatchilik” hisoblanadi. Jadidchilik ma’rifiy, ijtimoiy-siyosiy harakat sifatida paydo bo‘lishining asosiy sababi bevosita Turkistonning ichki muhitining fenomeni bo‘lib, Rossiya imperiyasining XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab O‘rtal Osiyonli istilo qilishi bilan va buning natijasida vujudga kelgan mudhish ijtimoiy-siyosiy vaziyatning mahsuli bo‘ldi. Jadidchilik harakatining vujudga kelishining ob’ektiv va sub’ektiv sabablarini yoritishimizda o‘sha davrning manbalari hisoblangan o‘zlarini jadidchi va jadidchilikka xayrxoh bo‘lgan ma’rifatparvar kishilarning jumladan, Ahmad Donishning “Navodir al-vaqoe” (“Nodir voqealar”) hamda “Risolai tarixi amiron mang‘it” (“Mang‘it amirlari tarixi haqida risola”) asarlarida, tarixchi Mirza Muhammad Abdulazim Somiy Bo‘stoniyning “Tarixi salotini mang‘itiya dor ussaltanai Buxoroi sharif” (“Buxoro sharif saltanatidagi mang‘it hukmdorlari tarixi”), tarixchi Mirzo Salimbek ibn Muhammad Rahimning “Tarixiy Salimiy” asarlariga tayanib, va Abdurauf Fitratning ikki asari “Munozara” va “Bayonati sayyohi hindi” asarlari asos bo‘lib xizmat qildi.

Chorizmning bosqinchilik harakati o‘lkamizni mustamlakaga aylantirish bilan

chegaralanib qolmay, mahalliy aholining madaniyati va ma’naviy asoslariga putur yetkazishga ham qaratilganligi uning siyosati davomida o‘z aksini topib bordi. Turkiston mustamlakachilari mahalliy xalqlarni o‘ta qoloqlikda ushlashni o‘zlariga shior qilib olgan. Ularning ko‘rsatmasi bilan xalqqailoji boricha mumkin qadar ko‘proq paxta ektirish, ularni tinimsiz ishlashga majbur etish, toki bu xalqning boshqa narsalarni o‘ylashga, siyosiy voqealarni anglab yetishga bir zum ham vaqtin, xohishi qolmasligini doimo nazarda tutib kelgan

Biz jadidchilik harakatining mazmun-mohiyati haqida gapirishdan oldin tariximiz sahifalarida “oq dog‘lar” deb ataladigan bu harakatning asl mohiyatini, maqsad-muddaolarini xolisona o‘rganish va baholash o‘z yechimini kutayotganligini ta’kidlamoqchimiz. Chunki, g‘oyaviy muxoliflar yaqin kunlargacha jadidchilikni faqat ma’rifatchilik harakati deb baholab keldilar. Maqsad – jadidchilikning doirasini toraytirish, sotsialistik kommunistik mafkuradan boshqasi keng xalq ongini qamrab olishi, egallashi mumkin emas, degan soxta tushunchaning asorati edi. Shuning uchun ham g‘oyaviy muxoliflar jadidchilik harakatining burjua liberal, millatchilik harakati, mayda burjua ideologiyasini ifodalovchi oqim sifatida qarab kelingan edi. Aslida esa jadidchilik:

1) jamiyatning barcha qatlamlarini jalb eta oldi. Uyg‘onish mafkurasi bo‘lib xizmat qildi;

2) mustaqillik uchun kurash olib bordi. Uning g‘ayrat va tashabbusi bilan vujudga kelgan Turkiston muxtoriyati bu yo‘ldagi amaliy harakatning dastlabki natijasi edi;

3) maorif va madaniyatni, matbuotni ijtimoiy-siyosiy maqsadlarga moslab chiqdi. Mana shunday islohotlarni amalga oshirishga bel bog‘lagan jadidlarning ilg‘or qismi mahalliy aholini jahoning taraqqiy etgan davlatlarida bo‘layotgan o‘zgarishlar va yangilanishlardan xabardor qilib borish lozimligini yaxshi anglaganlar.

Shu o‘rinda professor B.Qosimovning jadidchilikka bergen ta’rifi ham e’tiborlidir. “Jadidchilik, deydi B.Qosimov,-ham ijtimoiy, ham siyosiy, ham madaniy harakatdir. Shuning uchun ijtimoiyki, u jamiyatning barcha qatlamlarini jalb eta oldi, milliy uyg‘onish ideologiyasi bo‘lib xizmat qildi. Shuning uchun siyosiyki, u mustaqillik uchun kurash olib bordi... U madaniy harakat ham edi – adabiyotni yangiladi, matbuot va teatrchilikni yo‘lga qo‘ydi, maorifda esa “yangi maktab konsepsiysi” bilan chinakam inqilob yasadi. Eng muhim, bularning barchasini ijtimoiy-siyosiy maqsadlarga moslab ko‘rib chiqdi”<sup>1</sup>.

Darhaqiqat, milliy o‘zlikni anglashning o‘sishiga muhim turtki bo‘lgan va milliy ozodlik g‘oyasini shakllantirib, o‘z faoliyati bilan uni amalga oshirishga uringan kuchli progressiv harakat – jadidchilik bo‘lgan. U jahondagi umuminsoniy va milliy qadriyatlarga asoslanib, jamiyatning pishib yetilgan rivojlanish taraqqiyoti va o‘lka tub yerli aholisining zarur manfaatlariga javob berardi. Qoloqlik va jaholat, aholining ayanchli ahvoli, Turkistonning jahon sivilizatsiyasidan orqada qolib kelishi, Islom va shariatning oyoq osti qilinishi va bunday og‘ir fojiali hayotdan qutulish, erk va ozodlikka erishish haqida o‘z

zamonasining ilg‘or ziyoli, munavvarlaridan fikrmulohazalar paydo bo‘ldi. Xullas, jaholat uyqusidan uyg‘onish tarixiy zaruriyatga, rivojlanishning ob’ektiv talab va ehtiyojiga aylandi. Milliy demokratlar bo‘lgan jadidchilik harakatining eng muhim jihatlaridan biri milliy ozodlik kurashi mafkurasi va taktikasini o‘rganishga qaratilgan edi. Ular Yevropa mamlakatlarining davlat qurilishi va qonunchiligi, Rossiya va Sharq xalqlarining mustamlakachilikka qarshi kurashi va demokratik harakatlari mafkurasi hamda taktikasining teng amaliy jihatlarini o‘rganib, undan o‘z mamlakatlariga mosini, to‘g‘ri keladiganini tanlab olishdi. Natijada, milliy ziyyolilarning mafkuraviy va ijtimoiy-siyosiy faoliyati kuchayishi, jadidlarni ikkiga ajralishiga ya’ni sof madaniy-ma’rifiy ishlar tarafdorlari va ikkinchidan ijtimoysiyoziy institutlarni isloh qilish, mustamlakachilik va feodalizm kishanlaridan ozod bo‘lish tarafdorlariga bo‘linishlariga sharoit yaratdi.

Jadidchilar islam olami faylasuflari qoidalarida mavjud bo‘lgan imkoniyatlardan foydalangan holda ilmiy-gumanistik, falsafiy nazariyalarni ilgari surdilar. O‘zbekiston faylasuflarining ustozи, marhum akademik Ibrohim Mo‘minov Behbudiyning “Fan rahbarlariga, olimlarga” maqolasini tahlil qilib uning falsafiy qarashlari haqida to‘xtalib shunday yozadi: Behbudi moddiyunchilik va dahriylik, ishtirokiyunchilikka qarshi muvaffaqiyatli kurashmoq uchun ba’zan kalom falsafasi xulosalari ham ojizlik qilib qolishi mumkinligini anglab yetgan.

Faylasuflarning fikricha garchand jadidizm, masalan fransuz ma’rifatparvarligidan bir necha asr keyin yuz bergen hodisa bo‘lsa-da, u o‘z mohiyati bilan inqilobga qadar bo‘lgan O‘zbekistonning madaniy va ma’rifiy hayotida, fransuz ma’rifatparvarligi singari, ijobjiy rol o‘ynadi. Jadidlarning falsafiy asarlarida olamiy aql, insonni Xudo bilan bog‘lovchi aql degan mistik mulohazalar mavjud bo‘lsa-da, jadidlar aqlning bir tomondan, ruhiy jarayon ekanligini va ikkinchi tomondan aql tashqi ta’sirning, ta’lim-tarbiyaning mahsuli ekanligini e’tirof etadi.

Sobiq ittifoq davrida hayotning barcha sohalari sinfiylik, partiyaviylik, xudosizlik tamoyillari va davlat mulki ustuvorligiga tayangani, so‘z va vijdon erkinligi turli yo‘llar bilan bo‘g‘ib kelingani, bir yoqlama dunyoqarash zo‘rlik bilan singdirilganni tufayli falsafaning quruq safsata va zerikarli aqidaga aylanib qolgani achchiq haqiqatdir. U davrda totalitar tuzum va yakka partiya manfaatlari ustun qo‘yilani oqibatida falsafa deganda, insonni – inson, xalqni – xalqqa aylantiradigan, uning qadr-qimmati va o‘zligini aks ettiradigan, asrlar davomida bir butun tizim sifatida shakllanib, rivojlanib kelgan hodisa emas, balki sobiq mafkuraning maddohiga aylantirilgan, uning doirasidagi kichik bir soha tushunilar edi.

Mustabit sho‘rolar davri o‘zbek falsafasi taniqli olim, faylasuf Ibrohim Mo‘minov nomi bilan bog‘liq. Mashhur olim falsafa ilmiga qiziqdi, shu sohada maqola, risolalar yozdi va ilmiy tadqiqot ishlari olib bordi. “Falsafa - bepoyon olam. ...falsafa ilmi hududiy, milliy, mintaqaviy

xususiyatlarga ega bo‘lishi bilan birga, umumjahon mezonlari, qonuniyatlar, tarixiylik alomatlarini ham o‘zida aks ettiradi. Shuning uchun ham Ibrohim Mo‘minov xalqimiz falsafiy tafakkuri qadriyatlarni to‘g‘ri baholash maqsadida qadimgi yunon, Yevropa, ayniqsa. Gegel falsafasini o‘rganmoq zarur, degan qarorga keladi”-deb yozadi domlaning shogirdi, falsafa fanlari doktori, professor N.G‘oyibov. Ibrohim Mo‘minov falsafa ilmini o‘rganish jarayonida bir qator ilmiy tadqiqot ishlarini ham amalga oshirdi.

U 1941 yil o‘zbeklar orasida birinchilardan bo‘lib “Gegel dialektikasining ratsional mag‘zi” mavzusida nomzodlik ilmiy ishini himoya qildi. 1943 yilda O‘zbekiston Fanlar akademiyasi tashkil qilinadi. Uning ta’sis majlisidayoq Ibrohim Mo‘minov akademianing muxbir a’zosi qilib saylanadi. 1946 yil Samarqandda “Mirzo Bedilning falsafiy qarashlari” monografiyasini rus tilida bosilib chiqdi. 1950 yilda “XIX asr oxiri va XX asr boshlarida O‘zbekistonda ijtimoiy-falsafiy fikr taraqqiyoti tarixidan” degan mavzuda doktorlik dissertatsiyasini himoya qiladi. U 50-yillar boshlarida SamDUDA ijtimoiy kafedraga rahbarlik qildi. Bu kafedra Respublikada falsafa yo‘nalishida mutaxassislar tayyorlashda asosiy markazlardan biri bo‘lib qoladi.

Professor N.G‘oyibov o‘zining “Donishmand” risolasida Ibroxim Mo‘minovnig xzmatlari to‘g‘risida quyidagicha yakuniy muhim ilmiy xulosalarni chiqaradi:

- Markaziy Osiyoda falsafiy tafakkur tarixi xalqimizning umumiyligi bilan chambarchas bog‘liqlikda dialektik aloqada rivojlanib keldi; u jahon falsafasi tarixiy taraqqiyotining ajralmas va mazmunan boy qismidir;
- Markaziy Osiyo falsafasi hozirgi zamon falsafasining asosiy ilmiy-nazariy yo‘nalishlaridan biri hisoblangan inson mavzusiga qadim zamonlardoq falsafiy muammo sifatida e’tibor qaratdi va rivojlantirdi; inson axloqi, axloqning ijtimoiy mohiyati ayniqsa chuqurroq tahlil etildi;
- ijtimoiy-falsafiy g‘oyalari birmuncha rivojlantirildi; odil jamiyat, odil hukmdor g‘oyalari dadil targ‘ib qilindi;
- Markaziy Osiyo falsafasida bilish jarayoni o‘ziga xos usullarda tahlil etildi; sezgilar vositasida bilish, aqliy bilish, ular o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik masalalariga muhim ahamiyat berildi;
- Markaziy Osiyo falsafasi oddiy dialektikaning rivojlanishiga o‘ziga xos hissa ko‘shdi. Bu o‘rinda sonlar nazariyasi, inson tanasi hayotiy faoliyatining, shuningdek, moddiy borliqdagi, jumladan, fazodagi barcha predmetlarning xarakatlari qonuniyatlar haqidagi ta’limotlar muhim ahamiyatga egadir;
- panteizm ta’limotining sharqona yo‘nalishlari (vahdati vujud, vahdati mayjud) falsafiy ilmlar taraqqiyotiga o‘z xissasini qo‘shdi;
- Markaziy Osiyo falsafasi taraqqiyotida tasavvuf ta’limoti (tasavvuf falsafasi) g‘oyalari o‘ziga xos ahamiyatga ega;

-Markaziy Osiyo falsafiy fikrlar taraqqiyoti yuqoridagi xususiyatlari bilan jahon falsafasi taraqqiyotiga munosib hissasini qo'shdi;

Yurtimizda istiqomat qilib kelayotgan turli millat va elat vakillari hamda turli diniy konfessiyalar o'rtasida bag'rikenglik tamoyillarini qaror toptirishga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev tomonidan 2017 yil 7 fevraldagi Farmon asosida e'lon qilingan O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasining beshinchi yo'naliishi aynan diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikni ta'minlash masalasiga bag'ishlangani mamlakat Prezidenti va hukumatining Bosh qomusimiz va xalqaro hujjatlarda belgilangan umuminsoniy tamoyillardan og'ishmay rioya etayotganidan dalolatdir.

### **Berilgan matndan quyidagi savollarga javob bering.**

1. Jadidchilik harakatining ijtimoiy-siyosiy jihatlarini ko'rsatib bering?
2. Jadidlar falsafiy ijod qiganmi. Agar bilsangiz asoslab bering?
3. Jadidlarning merosini hozirgi zamon falsafasi o'rganishini to'g'ri deb hisoblaysizmi?
4. Totalitar mafkuraning falsafaga ta'sirini qanday baholaysiz?
5. XX asrda yetishib chiqqan o'zbek faylasuflarini sanab bering?

### **Amaliy mashg'ulotni o'tkazish tartibi:**

1. Tinglovchi berilgan har bir savol bo'yicha o'z fikrini bayon qiladi;
2. Qo'yilgan savolni qanday qilib qulay o'qitish metodlari haqida taklif beradi;
3. Berilgan taklif bo'yicha bir nechta misollar ko'rsatadi;
4. Taklif qilinayotgan zamonaviy ta'lim metodining samaradorligini isbotlaydi.

### **4-amaliy mashg'ulot**

Falsafiy tafakkurning ijtimoiy-siyosiy asoslari mustahkam bo'lishi zarurligi taraqqiyot jarayonida ko'p bor isbotlangan haqiqatdir. Har qanday jamiyat va mamlakat xalqning turli qatlamlari, partiyalar, milliy-etnik birliklarning ijtimoiy ongini o'zgartira olmasa, o'zining pirovardmaqsadlarini amalga oshirishi qiyin. Bugungi kunda jahon hamjamiyatining teng huquqli a'zosiga aylangan O'zbekistonda yangi mazmun va shakldagi siyosiy tizim hamda tuzilmalar vujudga keldi. Bularning barchasi yangi mazmundagi falsafiy dunyoqarashni shakllantirishning ijtimoiy-siyosiy asoslarini yaratdi.

Falsafiy yangilanishda ma'naviy asoslar nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bunday jarayon mamlakatda amalga oshayotgan ma'naviy sohadagi o'zgarishlarning tarkibiy qismidir. Bu borada O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar, xalq ma'naviyatining tozalanishi, asrlar davomida yaratilgan qadriyatlarni tiklash, asrab-avaylash, kelajakka yetkazish bilan bog'liq sa'y-harakatlar katta ahamiyatga ega. Bunda, ayniqsa, tarix falsafasi, xalqimizning xotirasi, o'tmishdagi avlodlar yaratgan boy madaniy merosdan to'la-to'kis foydalanish imkoniyati yaratilganini alohida ta'kidlash lozim.

Falsafiy yangilanishning g‘oyaviy omillari ham bor, ya’ni bu jarayon mamlakatimiz taraqqiyotining mafkuraviy tamoyillari bilan uzviy bog‘liqdir. Ma’lumki, mafkura jamiyatdagi ma’naviy muhit qanday ekanini ko‘rsatib turadigan eng asosiy mezonlardan biri bo‘lsa, falsafa uni shakllantiradigan omillar sirasiga kiradi. Prezidentimiz asarlarida ta’kidlangani kabi, mafkura bo‘lmasa, har qanday millat, jamiyat o‘z yo‘lini yo‘qotib qo‘yishi mumkin. Bugungi kunda mamlakatimizda milliy istiqlol g‘oyasini aholi ongi va qalbiga singdirish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayon falsafiy dunyoqarash yangilanishining asosiy yo‘nalishini belgilaydigan omillardan biriga aylanib bormoqda.

Hozirgi zamonga, uning shiddatli o‘zgarishlariga mos falsafiy dunyoqarashni yanada yangilash zarurati bir qator yo‘nalishlarda namoyon bo‘lmoqda:

1. Avvalo, bu mamlakatimizda demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish jarayoni bilan uzviy bog‘liq. Bunda ana shu yangi jamiyat haqida, bozor munosabatlariha bosqichma-bosqich o‘tish jarayoni, yangi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning qaror topa borishi, islohotlarning inson manfaatlariga xizmat qilishi, komil insonni voyaga yetkazish davr talabi ekani kabi dasturiy vazifalarning hayotiyligi to‘g‘risidagi g‘oyalarni odamlar dunyoqarashida qaror toptirish, ularning qalbi va ongiga demokratik qadriyatlarni muttasil singdirib borish zarur.

2. Falsafiy ongning yangilanishi mohiyat e’tibori bilan mustaqillikni mustahkamlash, mamlakatimizning xalqaro nufuzi va aloqalarining o‘sib borishi, tinchlik, osoyishtalik, milliy totuvlik, hamjihatlikka xizmat qiluvchi g‘oyalarga tayanadi. Uning hayotiyligi ko‘pmillatli xalqimiz irodasiga, ruhiyatiga, milliy tuyg‘ulari, orzu- intilishlariha mosligi bilan belgilanadi.

3. Albatta, falsafadagi yangilanish inson, millat va Vatan manfaatlari, milliy qadriyatlarimiz ruhiga mos holda amalga oshmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, yurtimizda kechayotgan islohotlar jarayoni, davlatimizning siyosiy, huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma’naviy hayotidagi ijobiy o‘zgarishlar to‘g‘risida xalqimizda to‘g‘ri tasavvur va tushunchalarni muttasil ravishda xosil qilib borish lozimligini ko‘rsatadi.

4. Falsafiy dunyoqarashning yangilanishi taqozo etadigan eng muhim vazifalardan biri huquqiy qadriyatlar, maqsad va g‘oyalarni amalga oshirish yo‘lida xizmat qiladigan tafakkur tarzini shakllantirishdir. Bu qonun ustivorligi va shu sohadagi maqsad va g‘oyalarni avvalo inson va butun jamiyat manfaatlarini aks ettirgani bois, ularni ma’naviy hayot tarziningtarkibiy qismiga aylantirish muhim ahamiyatga ega.

Shu o‘rinda qabul qilinayottan qonun va qarorlarning asl mohiyatini, ularda bayon qilingan g‘oya, xulosalarni keng xalq ommasi ongiga yetkazish benihoya muhim va dolzarb ekanini ta’kidlash joiz. Chunki demokratik taraqqiyot, fuqarolik jamiyatni va ma’rifatli, barkamol inson tushunchalari o‘zaro bog‘liqdir. Huquqiy davlatni ham, madaniy bozorni ham, ma’naviy sog‘lom jamiyatni ham ana shunday kishilar yarata oladi. Bunday avlodni

voyaga yetkazmay turib, ularning ongi va qalbiga milliy istiqlol g'oyalarini singdirmay turib, jamiyatdagи yangilanishning asosiy yunalistilarini amalga oshirish to'g'risida fikr yuritish nihoyatda qiyin.

Demak, falsafiy dunyoqarashning yangilanishi, bir tomondan, mohiyat e'tiboriga ko'ra, har bir insondan, uning ongi, tafakkuri takomillashuvidan chetda kechadigan jarayon emas. Ikkinchidan esa, bu - umumjamiyat miqyosidagi ijtimoiy ongning o'zgarish jarayondir. Shu ma'noda, u ham jamiyatdagи boshqa o'zgarishlar kabi, avvalo, inson uchun, uning manfaatlarini amalga oshirish uchun bo'layotgan tub islohotlarning tarkibiy qismidir. Bu jarayonda o'tayotgan davrni, uning mazmun-mohiyatini belgilaydigan ulkan o'zgarishlarni, bu o'zgarishlarda ishtirok etgan sub'ektlar faoliyatini o'rganish va bundan xulosalar chiqarish muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng iqtisodiy, ijtimoiy siyosiy, mafkuraviy-ma'naviy sohalarda taraqqiyot va yangilanishning o'ziga xos hamda o'ziga mos yo'lini tanladi. Respublikamizning bozor iqtisodiyotiga o'tish tajribasi, «o'ziga xos va o'ziga mos» taraqqiyot yo'li, istiqlolning dastlabki kunlaridan boshlab milliy an'analarimizga asoslangan yangi davlatchilik nazariyasi, milliy tiklanish g'oyasi, istiqbolda mo'ljallangan strategik masalalar, mintaqaviy va xalqaro siyosat, O'zbekistonning jahon hamjamiyatida tutgan o'rni va mavqeい kabi dolzarb masalalar ishlab chiqildi. Shuningdek, O'zbekistonda qurilayotgan huquqiy demokratik davlat xususiyatlari, demokratiya va xalq ruhiyati, demokratik tamoyillar rivoji, madaniyatlar va sivilizatsiyalar sintezi, fuqarolik jamiyatni tizimini shakllantirish yo'llari, milliy mafkura zarurati va uning negizlari, milliy qadriyatlarni tiklash, necha ming yillik tariximizni o'rganishning konseptual g'oyalari asoslab berildi.

Ma'lumki, Islom Abdug'anievich o'z rahbarlik faoliyatining mazmuniga aylangan «Bizdan ozod va obod Vatan qolsin!» degan ezgu g'oyani ilgari surgan va bu shior barchamizning, butun xalqimizning qalbidan chuqur joy olgan edi. Ulug' yo'lboshchi ana shu buyuk vazifani hamma vaqt, har qanday vaziyatda ham sharaf bilan ado etdi, bu yo'lida beqiyos kuch-g'ayrati va aql-zakovatini, kerak bo'lganda hatto aziz jonini ham ayamadi. Ko'pni ko'rgan xalqimiz aynan Islom Abdug'anievich rahbarligida g'oyat murakkab tarixiy davrda mamlakatimiz mustaqillikka erishganini, milliy davlatchiligidagi tiklash va dunyo hamjamiatidan munosib o'rin egallash, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini ishlab chiqish va amalga tatbiq etish, hayotning barcha soha va tarmoqlarini isloh qilish borasida ulkan yantuqlarni qo'lga kiritganini, bularning barchasi erkin va farovon hayotimiz uchun mustahkam poydevor bo'lib kelayotganini hech qachon unutmaydi<sup>4</sup>.

*Albatta jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichlarida ijtimoiy hodisalarga munosabat xilma-xil tarzda namoyon bo'ladi. Xususan, mustaqilligimizning birinchi*

<sup>4</sup> Мирзиёев Ш.М. Мустақил Ўзбекистон давлатининг асосчиси. // Ислом Каримов - Мустақил Ўзбекистон давлатининг асосчиси. –Т.: Ислом Каримов номидаги республика Хайрия жамоат фонди 2018. -10 б.

*kunidan boshlab, hayotimizning barcha jahbalarida «qadriyatlar», «milliy tiklanish», «milliy ong», «milliy g'urur», «milliy iftixor» kabi atamalar tez-tez ishlataladigan bo'lib qoldi. Bu bejiz emas. Zotan, mustaqbillik, ayni paytda, milliy tiklanish hamdir. Uni esa mazkur tushunchalarsiz tasavvur etib bo'lmaydi.*

Davlat va jamiyat boshqaruvi murakkab jarayon bo'lib, uni tashkil etish va boshqarish bo'yicha turli xil modellar, boshqaruv shakllari hamda yo'llari ishlab chiqilgan. Insoniyat tomonidan ming yillar davomida taraqqiyat parvar davlat, —komil jamiyat barpo etish g'oyasi ilgari surilgan. Shu asosda o'tgan asrdan boshlab jahon amaliyotida huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini tashkil etish bo'yicha amaliyot bir necha davlatlar tajribasida qo'llanilib, hayotda o'z samarasini berdi.

Bugungi kunda esa o'z suverenitetiga ega bo'lgan ko'pgina mamlakatlar uchun bunday yo'l eng maqbul maqsadga aylandi. Dunyo xalqlari yangi davr tarixini kuzatsak, ularning ko'pchiligi o'z milliy mustaqilligi uchun kurashni o'z ona tiliga davlat tili maqomini berish uchun kurashishdan boshlaganligini ko'ramiz. Hindiston, Pokiston, Bangladesh kabi Angliyaning, Afrikadagi Fransiyaning, Amerikadagi Ispanianing mustamlakalari bo'lgan davlatlarda ona tiliga davlat tili maqomi berish uchun kurashlar yillar davom etgan. Ammo, afsuski, ularning barchasi ham hali hanuz o'z niyatiga erishgan emas. Shuning uchun bu qonunni mustaqilligimiz yo'lidagi dastlabki qadamlardan biri sifatida, ulkan siyosiy, tarixiy voqeа sifatida e'tirof etishimiz, uning qadriga yetishimiz shart. O'tgan yillarga nazar tashlasak, milliy tilimizga munosabat va e'tiborning qanchalik o'zgarganligiga guvoh bo'lamiz. *Hech ikkilanmay aytish mumkinki, o'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi xalqimizning istiqlolga erishish, shu yurtda yashayotgan, uning rivoji, istiqboli uchun jon kuyidirayotgan har bir insonning orzu-umidlarini ro'yobga chiqarish yo'lidagi muhim qadamlardan biri bo'ldi. Zero, o'zlikni anglash, milliy iftixor hissining shakllanishi millat tilining mustaqilligi, erkinligi bilan bog'liqligi hech kimga sir emas.*

Milliy tiklanish — u yoki bu millat hayotida sodir etiladigan, zo'ravonlik yo'li bilan uning avlod-ajdodlari tomonidan yaratilgan meros, urf-odatlar, an'analar, qadriyatlardan mahrum etilgan, tarixiy xotirasi toptalgan, milliy o'zlikni anglashi cheklangan, manfaatlari, maqsadlari, paymol etilgan, tarixiy taraqqiyotning ma'lum bosqichiga kelib esa o'z mustaqilligini qo'lga kiritish natajasida milliy rivojlanish borasida ana shu boy berilgan imkoniyatlardan foydalanish, yaratilgan barcha moddiy va ma'naviy boyliklarni milliy rivojlantirishga yo'naltirishga qaratilagni umummilliyl faoliyatdir. Milliy tiklanishning asosiy yo'nalishi tarixiy taraqqiyotning ma'lum bosqichida u yoki bu millat tomonidan milliy taraqqiyot borasida boy berilgan imkoniyatlarini mustaqillikni qo'lga kiritish sharofati bilan yana milliy rivojlanishning asosiy manbaiga aylantirish borasidagi umummilliyl va milliy o'zlikni anglash jarayoni faoliyati bilan bog'liqdirdir.

Siyosatshunos olimlar mustaqillik davri rivojlanish bosqichlarini shartli ravishda kompensatsiya, adaptatsiya, integratsiya va innovatsiya davrlari sifatida tahlil qilishgan.

Jumladan, dastlabki, **kompensatsiya va adaptatsiya** davri (1991-2000y.) – ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasini amalga oshirishga qaratilgan davr bo‘lib, to‘ldirish, ta’minlash, qoplash, moslashish, muvofiqlashish, ko‘nikma hosil qilish ma’nolarida qo‘llaniladi. Bu davrdagi islohotlarning asosiy maqsadi sobiq ittifoq parchalanishi oqibatida markazlashgan ma’muri bo‘yruqbozlik boshqaruviga, kommunistik monopol zug‘umga aylangan mafkuraga xotima yasalishi natijasida mamlakatda har tomonlama yuzaga kelgan bo‘shliqni to‘ldirishdan iborat edi. Bu bosqichlar ikki davriy jarayonlar kesimida kuzatiladi. Birinchisi, bu milliy davlatchilik asoslarining joriy etilishi, singdirilishi, takomillashib hayotga tadbiq etilish jarayonlari – **kompensatsiya** davrini o‘z ichiga olsa, ikkinchi davriy jarayon davlat boshqaruv mexanizmlari belgilangan islohotlarni amalga oshirish imkoniyati va samardorligini amalda ro‘yobga chiqarishi, ayni paytda, fuqarolar ongida yangi qadriyatlarning qaror topishi, mustaqillik g‘oyalarining faol ehtiyojga aylanishi kabi o‘zgarish va moslashuvlar jarayoni – **adaptatsiya** davri hisoblanadi.

**Integratsiya** davri (2001-2007). — Integratsiyal atamasi birlashish, qo‘shilish, singish, umumjahon taraqqiyoti jarayonlariga muvofiq qadam tashlash kabi ma’nolarni qamrab oladi. Jumladan, bu tushuncha davr chaqiriqlariga munosib javob berish, ilm-fan va texnologiya yangiliklarini amaliy ishlab chiqarishga tatbiq etish orqali ilg‘or mamlakatlar safidan joy olishga erishish mazmunida qo‘llaniladi. Ayni paytda rivojlangan davlatlar tajribasini amalda tatbiq etish milliy iqtisodiyotning umumjahon tizimiga kirib borishiga xizmat qildi.

Innovatsiya davri mamlakatimizda 2007 yildan hozirgi kungacha davom etib kelayotgan uchinchi bosqich hisoblanadi. Ushbu davrning o‘ziga xos xususiyatlari O‘zbekistonning demokratik islohotlar yo‘lida yangi taraqqiy etgan industrial rivojlanish bosqichiga qadam qo‘yishi bilan belgilanadi. Bu davr jahon tajribalari hamda sinovlaridan o‘tgan, bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik davlat va jamiyat boshqaruvining eng ilg‘or tamoyillarini tatbiq etishga qaratilgan yangi bosqichni boshlab berdi.

### **Berilgan matndan quyidagi savollarga javob bering.**

4. O‘zbek falsafasining asosiy taraqqiyot yo‘nalishlarini ko‘rsatib bering?.
5. O‘zbekistonning mustaqil demokratik taraqqiyot yo‘lida yangi falsafiy tafakkurni rivojlanishini nimalarda ko‘rinadi?
6. Milliy tiklanish bosqichi va uning o‘ziga xos xususiyatlari nimada?

Mamlakatimizda demokratik islohotlar va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlarini sanab bering?

### **Amaliy mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi:**

1. Tinglovchi berilgan har bir savol bo‘yicha o‘z fikrini bayon qiladi;
2. Qo‘yilgan savolni qanday qilib qulay o‘qitish metodlari haqida taklif beradi;
3. Berilgan taklif bo‘yicha bir nechta misollar ko‘rsatadi;
4. Taklif qilinayotgan zamonaviy ta’lim metodining samaradorligini isbotlaydi.

## **5-amaliy mashg‘ulot**

Yurtimizda istiqomat qilib kelayotgan turli millat va elat vakillari hamda turli diniy konfessiyalar o‘rtasida bag‘rikenglik tamoyillarini qaror toptirishga alohida e’tibor qaratib kelinmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev tomonidan 2017 yil 7 fevraldagi Farmon asosida e’lon qilingan O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasining beshinchi yo‘nalishi aynan diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlikni ta’minalash masalasiga bag‘ishlangani mamlakat Prezidenti va hukumatining Bosh qomusimiz va xalqaro hujjatlarda belgilangan umuminsoniy tamoyillardan og‘ishmay rioya etayotganidan dalolatdir.

Strategiya tushunchasi grekcha so‘zdan olingen bo‘lib aslida —jang san’ati ma’nosini bildiradi. Bugungi kunga kelib —strategiya keng tushunchaga aylanib, turli siyosiy-ijtimoiy sohalarda qo‘llanilmoqda. Jumladan, —Davlat strategiyasi siyosiy terminologiya sifatida bugungi kunda fan nazariyasi va amaliyoti darajasida o‘zining alohida tushuncha va kategoriylariga ega bo‘lib:

- 1.) Uzoqqa mo‘ljallangan rejalshtirish san’ati;
- 2.) Boshqaruv va rahbarlik mahorat san’ati;
- 3.) Siyosiy va ijtimoiy jarayonlarni idora qilish san’ati;
- 4.) Aholini ma’lum maqsadlar sari safarbar etish san’ati;
- 5.) Mavjud resurslardan oqilona foydalanish san’ati;
- 6.) Taqsimlash va samaradorlikni ta’minalash san’ati kabi tushunchalarni qamrab oladi.

Strategiya – bu ta’limotni izlash, ifodalash va rivojlantirish tizimi bo‘lib, u izchillik bilan va to‘liq amalga oshirilganda uzoq muddatli muvaffaqiyatni ta’minalaydi. Strategiya bu – strategik fikrlash, chuqur bilim va intuitsiya asosida muhitni, kelgusi sharoitlarning mavjud prognozlarini tizimli tahlil qilish natijasidir. Ushbu tahlilning yakuniy mahsuli – bu o‘zidan avvalgi proqnoz, vazifa, nuqtai nazar, ustuvorliklar va uzoq muddatli maqsadli vazifalarni rejalshtirish orqali bajarilishini talab qiladi.

Dinlararo bag‘rikenglik g‘oyasi turli diniy e’tiqodga ega bo‘lgan kishilarning bir zamin, bir vatanda, oljanob g‘oya va niyatlar yo‘lida hamkor va hamjihat bo‘lib yashashini anglatadi. Dunyodagi dinlarning barchasi zaminida ezgu g‘oyalar turadi, ular insonni halollik, tinchlik, yaxshilik va do’stlik kabi fazilatlar tomon yetaklaydi. Azaldan islom dini o‘zga din vakillari bilan bahamjihatlikka chaqiradi. Alloh taolo Qur’oni Karimda shunday marhamat qiladi: «(Ey, mo‘minlar!) Sizlar ahli kitoblar bilan faqat eng chiroyli uslubda munozara qilingiz, illo ularning orasidagi zulm (tajovuz) qilganlar bundan mustasnodirlar» (Ankabut surasi, 46- oyat). Insoniyat o‘zini va o‘zligini anglash yo‘lida asrlar mobaynida turli muqaddas a’mollarga suyanib kelgan. Odamlarning e’tiqodlari, ular diniy-mifologik ta’limot ko‘rinishida yoki muqaddas kitob shaklida bo‘ladimi, qanday bo‘lmisin, insonni o‘zligini anglashga va o‘zgaga bo‘lgan ijobiy munosabatlarga da’vat etib kelgan. Ammo

hozirgi globallashuv sharoitida din bilan bog‘liq muammolar jahonning turli hudud va mamlakatlarida nozik masalalardan biriga aylandi.

Mamlakitimiz Prezidenti Sh.Mirziyoev 2017 yil 15 iyun kuni Toshkent shahrida “Ijtimoiy barqarorlikni ta’minalash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi” mavzusida anjumanda mazkur masalaga e’tibor qaratib, shunday dedi: “Biz ko‘p joylarda jaholatga qarshi ma’rifat tashabbusi bilan chiqyapmiz. Muqaddas islom dinini niqob qilib boshqa ko‘chalarga kirib ketayotgan johil kimsalar bir narsani tushunmaydi yoki tushunishni istamaydi. Ya’ni, islom faqat nurli hayotga, ilm-ma’rifatga, yaxshilikka undaydi. Hech qachon xunrezlik, qotillik, zo‘ravonlikka chaqirmaydi. Ana shu haqiqatni tan olmasdan, soxta g‘oyalarga aldanib, zararli oqimlargacha kirish, terrorchi bo‘lish – bu O‘zbekiston xalqiga mutlaqo to‘g‘ri kelmaydi. Alhamdulilloh, hammamiz musulmonmiz, buning shukronasini qilib, farzandlarimizni ham bunday ne’matning qadriga yetadigan insonlar etib tarbiyalashimiz kerak emasmi?” [2; 58 b.]. Shunday ekan, yoshlarning ma’naviy olami, ma’rifatini oshirish, diniy va dunyoviy bilimlar bilan qurollantirish, bir so‘z bilan aytganda, ularning tarbiyaga mas’ul ekanligini har bir shaxs his etmog‘i lozim. Shuning uchun ham Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning 2019 yil 28 dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida “O‘zbekiston millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik sohasida o‘z an’analariga doimo sodiq bo‘lib, bu yo‘ldan hech

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh assambleyasining yalpi majlisi tomonidan muhim bir hujjat – “Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik” rezolyusiyasi qabul qilindi. Ushbu rezolyusiyani qabul qilish tashabbusi 2017 yil sentabr oyida Bosh assambleyaning 72-sessiyasida O‘zbekiston tomonidan ilgari surilgan edi. Bizning taklifimizni Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a’zo bo‘lgan 193 ta davlat keng qo‘llabquvvatlagani jahon hamjamiyati tomonidan O‘zbekistonning sa’y-harakatlari berilgan yuksak baho va e’tirof sifatida barchamizga katta mammuniyat va g‘urur-iftixor bag‘ishlaydi”, deya alohida ta’kidladi .

Albatta, qisqa muddat ichida ushbu ijobiy natijalarga o‘zo‘zidan erishilmadi, bu borada ulkan ishlar amlga oshirildi. Xususan, Prezidentimiz sa’y-harakatlari bilan Qoraqalpog‘iston Respublikasida “Imom Eshon Muhammad”, Xorazmda “Oxun bobo”, Toshkentda “Imom Termiziy», “Suzuk ota” masjidlari bunyod etildi, Surxondaryodagi Imom Termiziy ziyyaratgohi, Qashqadaryodagi Abu Mu’in Nasafiy majmuasida qurilish-ta’mirlash, obodonlashtirish ishlari olib borildi. Buxoroda Mir Arab oliy madrasasi, Termiz shahrida Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, Samarqandda “Hadis” va “Kalom” ilmiy maktablari tashkil etildi. Ayniqsa, Yurtbosimizning tashabbusi bilan Samarqandda Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, poytaxtimizda Islom sivilizatsiyasi markazi tashkil etilayotgani, ushbu markaz qoshida Islom akademiyasining ochilishi ma’rifat va diniy bag‘rikenglik sohasidagi ezgu ishlarda yorqin namuna bo‘la oldi. Ushbu ishlarning ijobiy natijalarini his etgan va ko‘rgan holda 2018 yil 11 dekabr kuni

AQSh Davlat kotibi Maykl Pompeo o‘z qarorida rasmiy ravishda O‘zbekistonni din erkinligini buzganligi sababli “alohida tashvish” (SRS) mamlakatlari ro‘yxatidan olib tashladi. O‘zbekistonning Vashingtondagi elchixonasida Tashqi ishlar vazirligi tarqatgan bayonotida aytishicha, “Bu qaror juda kutilgan edi, chunki O‘zbekiston hayotining barcha jabhalarini qamrab olgan o‘zgarishlar va o‘zgarishlarning tarixiy bosqichidan o‘tmoqda”<sup>5</sup>

Harakatlar strategiyasining “Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minlash, chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish”, deb nomlangan beshinchi ustuvor yo‘nalishiga munosabat bildirar ekan, falsafa fanlari doktori, professor I.Saifnazarov inson e’tiqodini shakllantiruvchi uch omilini ko‘rsatib o‘tadi:

- inson hayotining maqsadi va mazmunini anglatadigan, hayotiy dunyoqarashini belgilaydigan, xalqimizning buyuk va qadimiy merosida ifodalangan gumanitar bilimlar;
- shaxsning intellektual salohiyatini yuksaltiradigan va chuqurlashtiradigan, ta’lim jarayonlarini baholashning eng xolis yo‘llarini, tamoyillarini, usullarini shakllantiradigan ilmiy-nazariy, ijtimoiy-falsafiy bilimlar;
- o‘zga xalqlar hayoti, madaniyati, ma’naviyati, dunyoqarashini o‘rgatadigan, uni o‘zi mansub milliy madaniyat bilan taqqoslab, har birining munosib o‘rnini anglashga imkon beradigan hozirgi zamon ilg‘or ijtimoiy bilimlar

### **Berilgan matndan quyidagi savollarga javob bering.**

1. «Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari» tamoyilini tushuntirib bering?
2. Harakatlar strategiyasi – diniy bag‘rikenglikni ta’minlash omili ekanini asoslab bering?
3. O‘zbekistonning jahon sivilizatsiyasiga kirib borishining asosiy yo‘nalishlari ko‘rsating?.
4. Ma’naviy barkamol avlod – buyuk kelajak bunyodkori.

### **Amaliy mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi:**

1. Tinglovchi berilgan har bir savol bo‘yicha o‘z fikrini bayon qiladi;
2. Qo‘yilgan savolni qanday qilib qulay o‘qitish metodlari haqida taklif beradi;
3. Berilgan taklif bo‘yicha bir nechta misollar ko‘rsatadi;
4. Taklif qilinayotgan zamonaviy ta’lim metodining samaradorligini isbotlaydi.

## **AMALIY MASHG‘ULOTLARNI BAJARISH NAMUNASI**

### **mavzu bo‘yicha topshiriqlar**

3 guruhga bo‘lining va berilgan savollar bo‘yicha fikringizni bildiring.

<sup>5</sup> Саифназаров И. Ахборот хуружлари ва мафкуравий иммунитет // “Парламент назорати ва ОАВ – мамлакатни модернизациялашнинг мухим омили” мавзусидаги республика илмий-амалий конференция материаллари тўплами. 2012 йил 20 февраль – Т.: 2012. 6-7 б

**1- guruh uchun:**

- A) Falsafa fani bo'yicha malaka talablari va ularni takomillashtirish yo'nalishlari;
- B) Falsafaning boshqa fanlar bilan uzviyligi va uzluksizligi holati;
- V) "Muammoni hal qilishning Rasselcha usuli" ta'rifini qanday tushunasiz?

**2- guruh uchun:**

- A) Falsafa fani bo'yicha malaka talablari va ularni takomillashtirish yo'nalishlari;
- B) Falsafaning boshqa fanlar bilan uzviyligi va uzluksizligi holati;
- V) "Muammoni hal qilishning Rasselcha usuli" ta'rifini qanday tushunasiz?

**3- guruh uchun:**

- A) Falsafa fani bo'yicha malaka talablari va ularni takomillashtirish yo'nalishlari;
- B) Falsafaning boshqa fanlar bilan uzviyligi va uzluksizligi holati;
- V) "Muammoni hal qilishning Rasselcha usuli" ta'rifini qanday tushunasiz?

## V. GLOSSARIY

<b>Termin</b>	<b>O'zbekcha sharhi</b>	<b>Inglizcha sharhi</b>
<b>Abstraksiya</b>	(lot. abstraktio – chalg‘ish, chetlashish) – narsalar xossa va nisbatlarining boshqalari, mazkur tadqiqotda jiddiy bo‘lmagan va ikkinchi darajali deb ko‘rib chiqilayotganlaridan xayolan ajratib olish (farqlash) jarayoni. Abstraksiya (mavhumlash) natijasi mavhum ob’ektlarning hosil bo‘lishidir.	(Lat. abstraktio - distraction, deviation) - the process of imaginary separation (differentiation) of others from the properties and proportions of things, which are not considered serious in this study and are considered secondary. The result of abstraction is the formation of abstract objects.
<b>Algoritm</b>	(Algoritmi so‘zidan – O‘rta Osiyolik olim al-Xorazmiy nomining lotinlashtirilgan shakli) – bir tipdagi yoki yalpi masala va muammolarni hal qilish mumkin bo‘lganani ko‘rsatma va qoidalarning uzil-kesil birligi (yig‘indisi).	(From the word algorithm - a Latinized form of the name of the Central Asian scientist al-Khwarizmi) - a definite unit (sum) of instructions and rules that can solve a type or general problem and problem.
<b>Analogiya</b>	(yunon. analogia – o‘xshashlik, aynanlik, muvofiqlik) – namoyish etilmaydigan mulohaza, fikr, xulosa, unda ikkio b’ektning ba’zi belgilariga ko‘ra boshqa belgilar bo‘yicha o‘xshashligi to‘g‘risida xulosa qilinib, o‘xshash(aynan)ligi asosida ularni bilishga erishiladi.	(Greek analogy - similarity, similarity, conformity) - a non-demonstrative consideration, opinion, conclusion, in which it is concluded that the two objects are similar in some respects to other features, and it is possible to know them on the basis of similarity (exact).
<b>Aniqlash (definitsiya)</b>	muloqot, bahs, munozara va tadqiqotda tushunmovchilikning oldini oladigan eng ishonchli usullardan biri.	one of the most reliable ways to prevent misunderstandings in communication, discussion, debate, and research.
<b>Aspekt</b>	tadqiqot ob’ekti (predmeti)ni o‘rganilayotganida ko‘rib chiqilayotgan nuqtai nazar, muayyan yondashuv.	the point of view considered when studying the object of research (subject), a specific approach.
<b>Aql</b>	(lot. rationalis, yun. nus, fronesis; arab. al-aql – asoslangan, maqsadga muvofiq) – inson uchun o‘ylash, fikrlash, anglash va xotirlash, xulosa chiqarish imkonini beradigan qobiliyat,	(Lat. rationalis, Greek. nus, fronesis; Arabic. al-intellect - based, purposeful) - a unique spiritual phenomenon, the ability for a person to think, reason, comprehend and

	noyob ma'naviy hodisa. Shuningdek, tafakkur faoliyatining bosqichi, insonning narsalarning mohiyatiga yetishtiruvchi bilish qibiliyati.	remember, to draw conclusions. It is also the stage of thinking activity, the ability of man to know the essence of things.
<b>Barqarorlik</b>	sharoitlar o‘zgorganida ham tajriba samaradorligini saqlab qolish, ancha uzoq vaqt mobaynida yuqori natijalarga erishib kelish.	maintaining experimental efficiency even when conditions change, achieving high results over a much longer period of time.
<b>Belgi</b>	boshqa bir predmet, xossa yoki munosabatni ifodalaydigan va muayyan xabarni uzatish, saqlash yoki unga ishlov berishda ishlataladigan moddiy, hissiy idrok etiladigan predmet.	another object, a material, emotionally perceptible object that represents a property or relationship and is used to convey, store, or process a particular message.
<b>Bilim</b>	bilishning natiasi, sub'ektivlashgan axborot.	the result of cognition, subjective information.
<b>Bilish</b>	voqelikning inson ongidagi aksi.	the reflection of reality in the human mind.
<b>Verifikatsiya</b>	(dan lat. Verus-haqiqat va facio - yolg‘on) - ilmiy bayonotlarning haqiqatini yempirik tekshirish natijasida o‘rnatish jarayonini ifodalovchi uslubiy konsepsiya; mantiqiy pozitivizm uchun asosiy bo‘lgan verifikatsion yondashuvga ko‘ra, har bir ilmiy mazmunli bayonot sof tajribadan ma’lumotlarni yozib olgan protokol jumlalari to‘plamiga kamaytirilishi mumkin va taklif hisobining boshlang‘ich bayonotlari sifatida harakat qiladi.	(from lat. verus-truth and facio - false) - a methodological concept that represents the process of installation as a result of empirical verification of the truth of scientific statements; according to the verification approach, which is fundamental to logical positivism, each scientifically meaningful statement can be reduced to a set of protocol sentences that record data from pure experience and act as initial statements of the proposal account.
<b>Virtuallik</b>	(lotincha “virtus”) qadimgi rimliklar tili va ma’naviyati jabhasida bu so‘z ko‘p ma’no – mazmunda qo‘llanilgan. Xususan, quyidagi ma’nolarda: ezzulik, yaxshilik, jasorat, potensiallik, noreallik va boshqalar.	(Latin "virtus") In the language and spirituality of the ancient Romans, the word was used in many senses. In particular, in the following senses: kindness, goodness, courage, potentiality, unreality, and so on.

<b>Virtualistika</b>	postnoklassik ilmiy yo‘nalish bo‘lib, virtuallik reallik muammosini o‘rganadi.	is a postnocial scientific direction that studies the problem of virtual reality.
<b>Garmoniya</b>	bir butun narsa qismlarining o‘zaro muvofiqligi.	the compatibility of the parts of a whole thing.
<b>Gipotetik</b>	ehtimol tutilgan, faraz qilingan, taxmin (gipoteza)ga asoslangan.	probably based on assumptions, hypotheses.
<b>Gipotetik-deduktiv uslub</b>	tabiiy bilimlar va umuman empirik fanlar natijalarini tizimlashtirishda keng tarqalgan, farazlardan oqibatlarni chiqarish (deduksiya qilish)ga asoslangan mulohaza yuritish usuli.	a common method of reasoning based on the deduction of consequences from hypotheses in the systematization of the results of natural sciences and empirical sciences in general.
<b>Globallahuv</b>	ijtimoiy hayotning turli jahbalarida yaxlit tuzilmalarning dunyo miqyosida shakllanish jarayoni.	the process of global formation of integrated structures in various spheres of social life.
<b>Globalistika</b>	globallahuv va uning oqibatlari mohiyatini anglab yetishga qaratilgan ilmiy va falsafiy tadqiqotlar fanlararo sohasi.	an interdisciplinary field of scientific and philosophical research aimed at understanding the nature of globalization and its consequences.
<b>Gnoseologiya</b>	(yunoncha gnosis – bilim, ilm va logos – ta’limot, fan) «bilish haqidagi ta’limot (fan)», «ong haqidagi ta’limot (fan)». Falsafiy adabiyotlarda, shu jumladan falsafiy qomuslar va lug‘atlarda «gnoseologiya» atamasi «bilish nazariyasi» deb tarjima qilingan.	(Greek gnosis - knowledge, science and logos - doctrine, science) "doctrine of knowledge (science)", "doctrine of consciousness (science)". In the philosophical literature, including philosophical encyclopedias and dictionaries, the term “epistemology” is translated as “theory of knowledge”.
<b>Deduksiya</b>	tadqiqot yoki tavsiyflash metodi, usuli bo‘lib, bunda ayrim qoidalar umumiylar xulosalar, aksiomalar, qoidalar, qonunlardan tadrijiy yo‘l bilan keltirib chiqariladi. Umumiyyadan kelib chiqib xususiy hodisa to‘g‘risida xulosa chiqarish uslubi, bunda qator xususiy holatlardan barcha ana shunday holatlar yig‘indisi to‘g‘risida xulosa qilinadi. Bu yerda avvaliga obektning umumiylar holati, so‘ng	research or descriptive method, a method in which certain rules are gradually derived from general conclusions, axioms, rules, laws. A method of drawing conclusions about a particular event from the general, in which a conclusion is drawn about the sum of all such cases from a number of special cases. Here, first the general

	uning alohida elementlari tadqiq etiladi.	condition of the object, then its individual elements are studied.
<b>Dezintegratsiya</b>	butunning ayrim qismlarga parchalanishi	Disintegration is the disintegration of a whole into individual parts
<b>Deizm</b>	Xudo dunyoni yaratgach, unda ishtirok etmaydi va uning voqealari tabiiy kechishiga aralashmaydi, deb hisoblaydigan falsafiy nuqtai nazar.	Deism is a philosophical view that believes that when God created the world, he would not participate in it and that its events would not interfere with its natural course.
<b>Determinizm</b>	barcha voqealar va hodisalarning qonuniyligi va sababiy bog'langanligi haqidagi falsafiy ta'lilot.	a philosophical doctrine of the legitimacy and causal connection of all events and phenomena.
<b>Dialektika</b>	harakat, rivojlanish, o'zgarish haqidagi falsafiy ta'lilot.	philosophical doctrine of movement, development, change.
<b>Diskret</b>	uzlukli	intermittent
<b>"Ichki realizm"</b>	falsafiy realizmning X. Patnemning umumiylashtirishni ifodalovchi versiyasi bo'lib, u metafizik realizm va relyativizmga ziddir.	is a version of philosophical realism that represents the general philosophical position of H. Patnem, which contradicts metaphysical realism and relativism.
<b>Ideal</b>	mutlaq barkamollik, bunday barkamollik haqidagi tasavvur.	absolute perfection, the notion of such perfection.
<b>Ideallash</b>	real buyumlar xossalarni o'zgartirish orqali ideal ob'ektlarni hosil qilishning aqliy (xayoliy) jarayoni. Masalan, shu tarzda ideal gaz, mutlaq qattiq jism, siqilmaydigan suyuqlik, moddiy nuqta, jamiyat, bozor kabi tushunchalar yuzaga keladi.	the mental (imaginary) process of creating ideal objects by changing the properties of real objects. For example, in this way concepts such as ideal gas, absolute solid, incompressible liquid, material point, society, market are formed.
<b>Idrok</b>	sezgilar vositasida olingan bilimning ongdagi aksi.	the reflection in the mind of the knowledge acquired through the senses.
<b>Izoh, tushuntirish</b>	fanning eng muhim funksiyasi, predmetlar, hodisalar va voqealarga oid faktlarni muayyan umumiylashtirish (qonunlar, nazariyalar, prinsiplar) ostida jamlashdan iborat.	the most important function of science is to summarize the facts about objects, events, and happenings under certain general conclusions (laws, theories, principles).

<b>Interpretatsiya</b>	(ot. lat. interpretatio – izohlash, tushuntirish) – hodisa, matn, belgili tuzilma, rasm, grafik ma’nosini ochib berish uslubi, bularni anglashga ko‘maklashadi.	(at. lat. interpretatio - interpretation, explanation) - a method of revealing the meaning of an event, text, symbolic structure, picture, graphic, which helps to understand them.
<b>Intuitsiya –</b>	(lot. intuitio – ko‘z uzmay tikilish, tomosha qilish(sozersanie) – keng mantiqiy mulohazaga murojaat qilmay turib bevosita haqiqatni aniqlash, bilish imkoniyati. Psihologik jihatdan ichki ko‘rish (ozarenie) kabi tavsiflanadi.	int. . It is based on previous, accumulated facts, knowledge, that is, the basis for explaining a novelty is a method of predicting an event based on previous knowledge.
<b>Ilmiy bilish metodologiyasi</b>	ilmiy-tadqiqot faoliyatining tamoyillari, shakllari va uslublari to‘g‘risidagi ta’limot.	doctrine of the principles, forms and methods of research activity.
<b>Ilmiy nazariya</b>	mavhum tushuncha va mulohazalar tizimi bo‘lib, voqelikng bevosita emas, balki ideallashtirilgan aksi bo‘lib keladi.	it is a system of abstract concepts and considerations, and becomes an idealized reflection of reality, not a direct one.
<b>Irratsionalizm</b>	borliqni oqilona mantiqiy bilish imkoniyatini rad etuvchi nuqtai nazar.	a view that denies the possibility of knowing reason rationally.
<b>Ierarxiya</b>	bir narsaning funksional ahamiyati yoki xizmat mavqeiga ko‘ra ikkinchi narsaga, uchinchi narsaga va hokazolarga bo‘ysunishi.	the subordination of one thing to another, to a third, etc., according to its functional significance or position of service.
<b>Izotrop</b>	barcha yo‘nalishlarda bir xil.	the same in all directions.
<b>Ideallash</b>	real buyumlar xossalarni o‘zgartirish orqali ideal obektlarni hosil qilishning aqliy (hayoliy) jarayoni. Masalan, shu tarzda ideal gaz, mutlaq qattiq jism, siqilmaydigan suyuqlik, moddiy nuqta, jamiyat, bozor kabi tushunchalar yuzaga keladi.	the mental (imaginary) process of creating ideal objects by changing the properties of real objects. For example, in this way concepts such as ideal gas, absolute solid, incompressible liquid, material point, society, market are formed.
<b>Izoh, tushuntirish</b>	fanning eng muhim funksiyasi, predmetlar, hodisalar va voqealarga oid faktlarni muayyan umumiyl xulosalar (qonunlar, nazariyalar, prinsiplar) ostida jamlashdan iborat.	the most important function of science is to summarize facts about objects, events, and happenings under certain general conclusions (laws, theories, principles).

<b>Induksiya</b>	(lot. induktio – navedenie) – ko‘pchilik elementlarning belgilari to‘g‘risida ana shu ko‘pchilikdan bir qismining belgilarini o‘rganish asosida mantiqiy xulosa chiqarish, ya’ni xususiy faktlar, qoidalardan umumiylar xulosalarga o‘tish, umumlashtirish uslubi. Bunday xulosa doim ishonchli, uzil-kesil emas, balki ehtimoliy yoki haqiqatga yaqin ko‘rinishga ega bo‘ladi. Shuning uchun zamonaviy mantiq fanida uning tasdiqlanish darajasini relevant usullar yordamida olingan haqiqatga yaqin bo‘lgan xulosa deb qaraladi.	(Lat. induktio - navedenie) - a method of generalization about the characteristics of the plural elements, based on the study of the characteristics of a part of the plural, that is, the transition from specific facts, rules to general conclusions. Such a conclusion will always seem plausible, not conclusive, but probable or close to reality. Therefore, in the science of modern logic, its degree of affirmation is considered to be a conclusion close to the truth obtained by means of relevant methods.
<b>G‘oya</b>	qarashlar, nazariyalar, dunyoqarashlar kabilar tizimida asosiy, belgilovchi (asosiy) qoida.	a basic, defining (basic) rule in the system of views, theories, worldviews, etc.
<b>Kontektsiz elementlar</b>	oddiy, dastlabki xususiyatlar, atributlar, omillar, diskret ma'lumotlar, signallar va boshqalar., o‘rtasidagi munosabatlar muayyan nazariya bilan shakllantirilgan.	simple, the relationship between initial properties, attributes, factors, discrete data, signals, etc., is shaped by a specific theory.
<b>Kauzallik</b>	sababiyat, sabab va oqibatning qonuniy aloqasi	the legal relationship of cause, effect, and effect
<b>Kommunikatsiya</b>	(keng ma’noda) – muloqot. Ekzistensializmda – muloqot turi bo‘lib, uning yordamida «Men» o‘zini boshqa odamda topadi.	(in the broadest sense) - communication. In existentialism, it is a form of communication through which the "I" finds itself in another person.
<b>Konsepsiya</b>	biron nimaga nisbatan qarashlar tizimi, asosiy fikrlar yig‘indisi, bunda tadqiqot maqsad, vazifalari aniqlanib, uning olib borish yo‘llari ko‘rsatiladi.	a system of views on something, a set of basic ideas, in which the purpose of the research, the tasks are defined, and the ways of its conduct are indicated.
<b>Konstitutsiyalash</b>	yaratish, belgilash, muayyan tashkiliy tus berish.	create, define, give a certain organizational tone.
<b>Lokutiv akt</b>	(D. Ostin tomonidan "nutq hujjatlari" nazariyasi tushunchasi) - o‘zini gapirish akti (shuningdek, illokutiv, perllokutivak).	(The concept of the theory of "speech documents" by D. Austin) - the act of self-speech (also illocutive, perlocutive).

<b>Ma'noning tekshirish nazariyasi</b>	mantiqiy empirizm tushunchasi bo'lib, unga ko'ra faqat protokol jumlalariga qisqartirilishi mumkin bo'lgan jumlalar ma'noga ega.	is a concept of logical empiricism, according to which only sentences that can be abbreviated to protocol sentences have meaning.
<b>Materializm –</b>	dunyoning moddiyligidan va ongdan qat'iy nazar mavjudligidan kelib chiqadigan falsafiy yo'nalish.	a philosophical direction that stems from the existence of the world regardless of its materiality and consciousness.
<b>Metafizika –</b>	Gegeldan oldingi va hozirgi G'arb falsafasida borliqning o'ta hissiy tamoyillari va asoslari haqidagi fan. Falsafaning sinonimi sifatida ishlatalidigan atama.	The science of the ultimate emotional principles and foundations of existence in pre-Gegel and modern Western philosophy. A term used as a synonym for philosophy.
<b>Mistika –</b>	sirli, g'ayritabiyy, tushunarsiz narsa yoki hodisa.	mysterious, supernatural, incomprehensible thing or phenomenon.
<b>Moddiylashtirish –</b>	ma'no strukturalari, sxemalar, loyihalarning inson faoliyatida gavdalanishi.	semantic structures, schemes, the embodiment of projects in human activity.
<b>Modus –</b>	predmetning unga ayrim holatlardagina xos bo'lgan muvaqqat xossasi.	a temporary property of an object peculiar to it only in certain cases.
<b>Monizm –</b>	plyuralizmga zid o'laroq, muayyan bir asosdan kelib chiqadigan falsafiy yondashuv.	as opposed to pluralism, a philosophical approach that stems from a specific foundation.
<b>Naukometriya –</b>	fanshunoslikning ilmiy axborot tuzilmasi va dinamikasiga oid statistika tadqiqotlari bilan shug'ullanadigan sohasi.	the field of science engaged in statistical research on the structure and dynamics of scientific information.
<b>Passionar –</b>	ichki energiyaga egalik yoki o'ta g'ayratlilik	possession of inner energy or excessive zeal
<b>Permanent –.</b>	doimiy, uzluksiz	continuous, uninterrupted
<b>Persepsiya –</b>	idrok etish.	perception
<b>Rasionalizm –</b>	aqlni bilish va odamlar xulq-atvorining negizi deb e'tirof etadigan falsafiy yo'nalish.	a philosophical orientation that recognizes reason and recognizes it as the basis of human behavior.
<b>Radikal konvensionalizm -</b>	K.Aydukevich tomonidan ishlab chiqilgan ta'limot bo'lib, kuzatish takliflari shartli ravishda qabul qilingan "konseptual asosga" bog'liq va shuning uchun "nazariy neytral " empirik asosni shakllantirmaydi.	It is a doctrine developed by K. Aydukevich that the observational propositions depend on a conditionally accepted 'conceptual basis' and therefore do not form a 'theoretically neutral' empirical basis.
<b>Singulyar (atomar) taklif</b>	bu eng oddiy turdag'i taklif bo'lib, u ob'ektning ma'lum bir	it is the simplest type of proposition, which implies that an

	xususiyatga ega yekanligini yoki ikki yoki undan ortiq ob'ektning bir-biriga nisbatan ma'lum bir munosabatda ekanligini bildirishni nazarda tutadi.	object has a certain property, or that two or more objects have a certain relation to each other.
<b>Sakral</b>	muqaddas	holy
<b>Sensualizm</b>	hissiy bilishning rolini oqilona bilishning ahamiyatidan ustunroq qo'yuvchi falsafiy yo'naliш.	a philosophical direction that prioritizes the role of emotional cognition over the importance of rational cognition.
<b>Simvol</b>	biron-bir g'oyani ifodalovchi belgi, obraz.	a character, an image, representing any idea.
<b>Sinkretizm</b>	qismlargacha ajralmaganlik, biron-bir hodisaning noraso holati bilan belgilanadigan har xil jinsli elementlarning aralashuvni.	inseparability, the intermingling of elements of different sexes, which is determined by the defective state of any event.
<b>Sinergetika</b>	(yunoncha «synergeia», «sinergetikos») birgalikda harakat qilish, hamkorlik, o'zaro muvofiqlashtirgan ta'sir ma'nolariga ega.	(Greek "synergeia", "sinergetikos") means to act together, to cooperate, to coordinate.
<b>Texnotron jamiyat</b>	kompyuter inqilobi bosqichiga kirgan jamiyat.	a society that has entered the stage of the computer revolution.
<b>Transsidental</b>	o'ta umumiy	very common
<b>Universum</b>	yagona Olam, yaxlit dunyo.	a single universe, a unified world.
<b>Falsafa</b>	tushunchasi yunoncha phileo – sevaman va sophia – donolik so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, mazkur atamaning dastlabki ma'nosini donolikka muhabbat deb talqin qilish mumkin. Falsafa so'zini ilk bor qadimgi yunon mutafakkiri Pifagor miloddan avvalgi VI asrda tayyor holda (afsonalar, rivoyatlar, an'analar orqali) avloddan avlodga o'tuvchi bilim va inson o'z aqliga tayanib, mushohada yuritish va borliqni tanqidiy tushunish yo'li bilan olishi mumkin bo'lgan bilimni farqlash maqsadida ishlatgan.	The concept is derived from the Greek words phileo - love and sophia - wisdom, and the original meaning of the term can be interpreted as love of wisdom. The word philosophy was first used by the ancient Greek philosopher Pythagoras in the sixth century BC to distinguish between knowledge that can be passed on from generation to generation (through myths, legends, traditions) and knowledge that a person can acquire through observation and critical understanding of existence.
<b>Fan</b>	odamlarning real olam to'g'risidagi obektiv ma'lumotlarni tizimlashtirishga qaratilgan faoliyat sohasi, tabiat,	a field of activity aimed at systematizing objective information about the real world of people, a constantly evolving system of knowledge related to the

	jamiyat va tafakkurning obektiv qonunlariga oid bo‘lgan, uzluksiz rivojlanib borayotgan bilimlar tizimi. Fan ijtimoiy hodisa, bilimlarning tizimlashtirilgan shakli.	objective laws of nature, society and thought. Science is a social phenomenon, a structured form of knowledge.
<b>Fizikalizm</b>	neo-pozitivismning asosiy postulatlaridan biri bo‘lib, u barcha fanlarni universal til (fizika tili) asosida birlashtirish imkoniyatini tasdiqlaydi; "asosiy bayonotlar" sifatida fizik ob’ektlarning kuzatishlarini tasvirlaydigan jumlalar qabul qilinadi.	is one of the main postulates of neo-positivism, which affirms the possibility of uniting all sciences on the basis of a universal language (the language of physics); “basic statements” are sentences that describe observations of physical objects.
<b>Fenomen</b>	insonga hissiy bilish tajribasida berilgan hodisa.	a phenomenon given to man in the experience of emotional cognition.
<b>Fenomenologiya</b>	bevosita kuzatish mumkin bo‘lgan ideal mohiyatlar sifatidagi fenomenlar haqidagi falsafiy ta’limot.	a philosophical doctrine of phenomena as ideal essences that can be directly observed.
<b>Fluktuatsiya</b>	o‘zgarish, belgilangan parametrlardan tasodifyi og‘ish.	change, random deviation from the specified parameters.
<b>Empirik</b>	tajribada ko‘rilgan	seen in experiment
<b>Etimologiya</b>	u yoki bu so‘z yoki iboraning kelib chiqishi.	the origin of this or that word or phrase.
<b>Epistemologiya</b>	(lug‘aviy ma’nosi: grekcha “ilmiy bilim, fan”, “ishonchli bilim”). Bilish haqidagi falsafiy ta’limot, ilmiy bilishni tadqiq etadi. Epistemologiya falsafaning shunday sohasiki, unda bilim tabiatи va imkoniyatlari, chegarasi va ishonchlilik shartlari tahlil qilinadi. 1832 yildan ilmiy atama sifatida qo‘llanila boshlagan.	(Dictionary meaning: Greek “scientific knowledge, science”, “reliable knowledge”). The philosophical doctrine of knowledge explores scientific knowledge. Epistemology is a branch of philosophy in which the nature and possibilities, limits, and conditions of reliability of knowledge are analyzed. It has been used as a scientific term since 1832.
<b>Haqiqat</b>	voqelikning inson ongidagi bilimlariga aynanligi, mosligi.	the accuracy of reality to the knowledge of the human mind.
<b>Xolizm</b>	olamning bir butunligi haqidagi qarash bo‘lib, verifikatsiya tamoyiliga ko‘ra faqat butun tizimning bir qismi sifatida tekshirish mumkin.	is a view of the integrity of the universe, which, according to the principle of verification, can only be verified as part of the whole system.

## VI. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

#### I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliv bahodir. 2-jild. T.: “O'zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild.– T.: “O'zbekiston”, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O'zbekiston”, 2020. – 400 b.

#### II. Normativ-huquqiy hujjatlar

6. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2019.
7. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda qabul qilingan “Ta'limga to'g'risida”gi O'RQ-637-sonli Qonuni.
8. O'zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida”gi Qonuni.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyun “Oliy ta'limga muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-4732-sonli Farmoni.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi 4947-sonli Farmoni.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 aprel "Oliy ta'limga tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-2909-sonli Qarori.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyun “Oliy ta'limga muassasalarida ta'limga sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-3775-sonli Qarori.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentabr “2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5544-sonli Farmoni.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 may “O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-5729-son Farmoni.
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 iyun “2019-2023 yillarda Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida talab yuqori bo'lgan malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatini

rivojlantiri chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4358-sonli Qarori.

16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgust “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzlusiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli Farmoni.

17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabr “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni.

18. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabr “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarori.

### **Sh. Maxsus adabiyotlar**

1. “Markazi Osiyo dinlari tarixi” (hammualliflikda). -T., TDShI, 2006.
2. David Spencer “Gateway”, Students book, Macmillan 2012.
3. English for Specific Purposes. All Oxford editions. 2010, 204.
4. H.Q. Mitchell “Traveller” B1, B2, MM Publications. 2015. 183.
5. H.Q. Mitchell, Marileni Malkogianni “PIONEER”, B1, B2, MM Publications. 2015. 191.
6. Lindsay Clandfield and Kate Pickering “Global”, B2, Macmillan. 2013. 175.
7. Steve Taylor “Destination” Vocabulary and grammar”, Macmillan 2010.
8. Abdulhakim Shar’iy Jo‘zjoni. Islom huquqshunosligi. Hanafiy mazhabi va O‘rta Osiyo faqiqlari. – T.: “Toshkent islom universiteti” nashriyoti, 2002. – 256 b.
9. Abduhalimov B. Bayt al-hikma va O‘rta Osiyo olimlarining Bag‘doddagi ilmiy faoliyati. –T.: “Toshkent islom universiteti” nashriyot matbaa birlashmasi, 2004. – 236 b.
10. Ali-zade Aydым Arif ogli. Xronika muslimanskix gosudarstv. – M.: UMAA, 2007. – 445 s.
11. Asekretov O.K., Borisov B.A., Bugakova N.Yu. i dr. Sovremennye obrazovatelnye texnologii: pedagogika i psixologiya: monografiya. – Novosibirsk: Izdatelstvo sRNS, 2015. – 318 s. <http://science.vvsu.ru/files/5040BC65-273B-44BB-98C4-CB5092BE4460.pdf>
12. Belogurov A.Yu. Modernizatsiya protsessa podgotovki pedagoga v kontekste innovatsionnogo razvitiya obЩestva: Monografiya. — M.: MAKS Press, 2016. — 116 s. ISBN 978-5-317-05412-0.
13. Beruniy Abu Rayhon. Tanlangan asarlari: T.1. (Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar) T.: Fan, 1968.
14. Bosvort K. E. “Musulmon sulolalari”. – T.: “Fan” nashriyoti, 2007. – 271 b.
15. Vohidov Sh., Qodirov A. “Sharqning mashhur sulolalari”. – T.: Akademnashr, 2013. – 624 b.

16. Gulobod Qudratulloh qizi, R.Ishmuhamedov, M.Normuhammedova. An'anaviy va noan'anaviy ta'lim. – Samarqand: “Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi” nashriyoti, 2019. 312 b.
17. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari. – T.: Islom universiteti, 2010.
18. Ibraymov A.Ye. Masofaviy o'qitishning didaktik tizimi. metodik qo'llanma/tuzuvchi. A.Ye. Ibraymov. – Toshkent: “Lesson press”, 2020. 112 bet.
19. Ignatova N. Yu. Obrazovanie v sifrovuyu epoxu: monografiya. M-vo obrazovaniya i nauki RF. – Nijniy Tagil: NTI (filial) UrFU, 2017. – 128 s. [http://elar.urfu.ru/bitstream/10995/54216/1/978-5-9544-0083-0\\_2017.pdf](http://elar.urfu.ru/bitstream/10995/54216/1/978-5-9544-0083-0_2017.pdf)
20. Ishmuhamedov R.J., M.Mirsolieva. O'quv jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalari. – T.: «Fan va texnologiya», 2014. 60 b.
21. Ma'naviyat asosiy tushunchalar izohli lug'ati. –T.:G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009.
22. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. –T.: O'zbekiston, 2000.
23. Muslimov N.A va boshqalar. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. O'quv-metodik qo'llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 208 b.
24. Oliy ta'lim tizimini raqamli avlodga moslashtirish konsepsiysi. Yevropa Ittifoqi Erasmus+ dasturining ko'magida. [https://hiedtec.ecs.uniruse.bg/pimages/34/3.\\_UZBEKISTAN-CONCEPT-UZ.pdf](https://hiedtec.ecs.uniruse.bg/pimages/34/3._UZBEKISTAN-CONCEPT-UZ.pdf)
25. Usmonov B.Sh., Habibullaev R.A. Oliy o'quv yurtlarida o'quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish. O'quv qo'llanma. T.: “Tafakkur” nashriyoti, 2020 y. 120 bet.
26. Husniddinov Z.M. “Islom: yo'naliishlar, oqimlar, mazhablar”. «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent, 2000 yil.


#### **IV. Internet saytlari**

27. <http://edu.uz> – O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
28. <http://lex.uz> – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi
29. <http://bimm.uz> – Oliy ta'lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish bosh ilmiy-metodik markazi
30. <http://ziyonet.uz> – Ta'lim portali ZiyoNET
31. <https://philpapers.org/> - mejdunarodnaya filosofskaya poiskovaya sistema po knigam, statyam, jurnalam, naxodyaçimsya v otkrytom dostupe
32. <https://plato.stanford.edu/> - Stenfordskaya ensiklopediya filosofii.
- <https://elibrary.ru/> - krupneyshiy rossiyskiy informatsionno-analiticheskiy portal (v tom chisle) v oblasti filosofii

**Samarqand davlat universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta  
tayyorlash va ularning malakasini oshirish mintaqaviy markazida 2022 yil  
aprel-may oylarida o'tkaziladigan Falsafa yo'nalishi o'quv-uslubiy  
majmualari bo'yicha  
EKSPERT XULOSASI**

Samarqand davlat universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish mintaqaviy markazida 2022 yil aprel-may oylarida oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilarining "Falsafa" yo'nalishi qayta tayyorlash va malaka oshirish kursi mutaxassislik fanlaridan tuzilgan o'quv-uslubiy majmualar va chiqish testi savollari maxsus fanlar blokidagi modullarning o'quv dasturiga mos va uni to'liq qamrab olgan holda tuzilgan. Test savolari 4 ta muqobil javobda tuzilib, 1 ta to'g'ri javobni o'z ichiga oladi. O'quv-uslubiy majmua va test savollari qo'yilgan talablarga javob beradi.

**Ekspertlar**

Karimov Soibnazar	SamDU, Falsafa kafedrasi mudiri, f.f.d.	
Allayarova Marxabo	SamDU, Falsafa kafedrasi dotsenti, f.f.n.	
Meliyev Baxtiyor Abduxomidovich	SamDU mintaqaviy markaz bo'lim boslig'i, g.f.f.d.	

**Mintaqaviy markaz direktori,  
geografiya fanlari doktori, professor:**

**S.B.Abbasov**

## ЭКСПЕРТНОЕ ЗАКЛЮЧЕНИЕ

**Об учебно-методических комплексах по направление  
Философия, которые пройдут в апреле 2022 года в Региональном  
центре переподготовки и повышения квалификации педагогических  
кадров при Самаркандском государственном университете**

В апреле 2022 года Региональном центре переподготовки и повышения квалификации педагогических кадров при Самаркандском государственном университете проведет курс переподготовки и повышения квалификации преподавателей высших учебных заведений по направлению «Философия». Учебно-методические комплексы соответствуют с учебным планом модулей специального научного блока и полностью охватить его. Учебно-методические комплексы соответствуют современным требованиям.

**Зарубежный эксперт:**  
Кандидат философских наук, доцент кафедры культурологии КГУМХСУ «Худжандского государственного университета имени Б.Гафурова»



**Усанов Р.Т**